


CHORSHAMIYEV N.A.

SPORT PEDOGOGIK MAHORATINI OSHIRISH KURASH

O'quv qo'llanma



Toshkent – 2024

796.8(045.8)

Dh 77

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA
VA SPORT UNIVERSITETI

CHORSHAMIYEV NURIDDIN ABDIALIMOVICH
SPORT PEDOGOGIK MAHORATINI
OSHIRISH (KURASH)

O'quv qo'llanma

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining 202_ yil
_____dagi _____-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida
nashr etishga tavsiya etilgan.

Ro'yxatga olish raqami: _____

"MAKON SAVDO PRINT"
Toshkent - 2024

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ DU.2868/5

UO'K: 796.83:(075)

KBK: 75.Я.2.

Chorshamiyev N.A. // Sport pedagogik mahoratini oshirish (kurash) o'quv qo'llanma // "MAKON SAVDO PRINT", Toshkent – 2024, 151 bet.

Muallif:

Chorshamiyev N.A. – O'zDJTSU Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

Usmanxodjayev T.S. – O'zDJTSU Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida professori, p.f.d.

Muxammadiyev K.B. – TDTU Ijtimoiy fanlar kafedrasida professori v.b., p.f.d. (DSc)

Mazkur o'quv qo'llanmada Kurashning rivojlanish tarixi, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslublari, kurashning texnik – taktik usullarini nozik tomonlari batafsil, tushunarli va sodda tilda bayon etilgan. O'quv qo'llanma O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, 5610500 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) Respublika oliy o'quv yurtlari jismoniy tarbiya fakultetlari hamda Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari o'qituvchi va talabalari, shuningdek, kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining murabbiylari va sportchilari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-728-75-4

© CHORSHAMIYEV N.A.

© "MAKON SAVDO PRINT" 2024

KIRISH

Kurash gilami O'zbek o'g'lonlari uchun o'z kuchlarini sinaydigan va halol kurashadigan mardlar maydonidir. Uning atrofida alpqomat bahodirlar-u, mard yigitlar parvona. O'zi uchun emas, balki yurt sha'ni, yigitlik or-nomusi uchun go'yo otashdek kuyib-pishadilar. Bu muqaddas maydon til kaliti bilan emas, dil ohangi ila bunyod bo'ladi. Kurash - millatlarni, xalqlarni birlashtiradi.

Bu sehrli ohang dastlab oyoqlarga, undan qo'l va mahkam bog'langan bel tomon taraladi. O'zbek o'g'lonlari kurashida mardlik, halollik uchun kurashadilar. Raqibining kuragini erga tekkizadilar. "Halol" atamasi yangraydi-yu, buni eshitgan haqiqiy o'zbek yigiti raqibining qo'lidan tutib, turishga-da ko'maklashadi. Mana bu maydondagi eng katta jasorat. Bu jasorat kamtarlik, benazirlik, vatanparvarlik hislari ila uyg'unlashib, jilo kasb etib boradi, ko'p vaqtlar odamlar qalbiga jo bo'ladi. Odamlarga bu ajib hissiyotni faqat O'zbek kurashigina bera oladi.

Boshdagi aql oyoqlarga, yuraklarda jo'sh urib turgan Vatan tuyg'usi belga, yigitlik sha'ni esa bilaklarga quvvat beradi. O'zbek yigitlari ana shunday kurashgan. To'ylarda, bayramlarda polvonlar o'rta tushib kurash tushirishgan, xalqimiz esa ularni olqishlab turishgan. Ha, o'zbek yigitlari oshini halol eb, baxtga o'z kuchlari bilan, ezgu amallari bilan erishgan. Bu yo'lda issiqni issiq, sovuqni sovuq demagan. Ana, milliy kurashimizning qadri, insonning ezgu tuyg'ularila uyg'unlashgan mardlar maydoni, baxt ostonasining eng ravon ammo sermashaqqat yo'li.

O'zbek ota-bobolaimiz azaldan o'g'illarini milliy kurash ruhida tarbiyalab borgan. To'yu-tantalarda, katta-katta tantanalarda shu jahon xalqlari tan olgan mashhur milliy g'ururimiz kurash ko'tarilgan davralarga "mana mening o'g'lim" deya ko'krak kerib chiqishgan. O'zbekim kurashi rivojlangandan rivojlanib, jahon sport sahnasiga "O'zbek milliy kurashi" - degan ulug' nom bilan yuksak qadr topdi.

Buning yaqqol dalili sifatida o'zbek o'g'lonlarimizning jahon sport shohsupalari zabt etayotganliklari, qolaversa, yurtimiz miqyosida ham ko'plab musobaqalar o'tkazilib kelinayotganligi misolida ham ko'rish mumkin.

Muhtaram yurtboshimiz tomonidan ham sevimli qadriyatimiz kurashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birgina oxirgi 3 yillikni o'zida 2 ta Prezident qarori va bir nechta hukumat qarorlari qabul qilinib, Kurashni rivoji yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabr kuni "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3306 sonli, 2020-yili 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufo'zini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-sonli qarorlari qabul qilinishi mardlik, jasurlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan sevimli sportimizning yangi davrini boshlab berdi.

I BOB. KURASH TARIXIY TARAQQIYOT SARI

1.1. Kurashning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi

Darhaqiqat, Kurashning tarixi insoniyat tarixi bilan teng. Misrlıklar eramizdan 25 asr avval ham kurash bilan shug'ullangan. O'zbekiston hududidan jez davriga oid, eramizdan 15 asr burun yasalgan, kurash tushayotgan polvonlar haykalchalari topilgan, qadimgi greklar sportning bu turini yaxshi ko'rishgan va unga sportday emas, fanday munosabatda bo'lishgan.

Qadimgi Yunon, Rim, Yaponiya, Xitoy va nihoyat, Markaziy Osiyoda kurash azaldan mavjud edi.

Kurash, albatta, ikki kishining o'zaro kuch sinashi, biri ikkinchisini engish uchun qiladigan harakatlargina emas, buning o'z falsafasi, mazmuni, mohiyati bor. Xo'sh, o'zbek kurashining jahon sportidagi eng yorqin turlar — yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyu-do va sambo kabilardan farqi nimada?

Barchasining maqsadi bitta — raqibni yengish, yengganda ham kuragini yerga tekkizib, yengish. Faqat bunga erishish yo'llari, usullari biroz farqlanadi.


Aslida "kurash" so'zi halollik va to'g'rilikni ifodalaydi. Boshqa turlarni kamsitmagan holda aytish mumkin-ki, o'zbek kurashi ularning orasidagi eng to'g'ri va haloli.

Yunon-rum kurashi. Uning asoslari qadimgi Yunonistonda yaratilgan va dastlabki olimpiadalar dasturida bo'lgan. Unda raqibning qo'li, bo'yni, tanasidan tutib, kuragiga yiqitish lozim. Bunda oyoqni ishlatib usullar qo'llash mumkin emas.

O'zbek kurashi o'z tartib-qoidalari bilan qayd etilgan to'rt turning o'rtasida turadi. Unda yunon-rum yoki erkin kurashdagi kabi gilamda "emaklash", dzyu-do va sambodagi kabi har qanday usulni qo'llab, raqibni engish tartibi yo'q.

Unga mardonavorlik xos, u polvonni, yengishi, yyengilishidan qat'iy nazar, hurmat qiladigan sport.

Milliy kurashning ushbu qoidalari to'g'risida Ibn Sino "Tib qonunlari"da ko'rsatib o'tgan. Xalq hayotda raqiblari bilan qanday kurashsa, sportda ham shu kabi qoidalarga amal qiladi. Aytishadi-ku — sport tinchlik elchisi! Bu gap shunchaki yoki sport tinchlik yo'lida kurashgani uchun aytilmagan. Azal-azaldan dono rahbarlar boshqargan davlatlar kim kuchliligini bilish uchun xarbiy xizmatlar o'rtasida janglar o'tkazish o'rniga, musobaqalar uyushtirgan va kim g'olib bo'lsa, o'sha kuchli sanalgan, urishishga hojat qolmagan. Hozir ham qaysidir ma'noda davlatlar shunday usulni qo'llamoqda.



1-rasm.

Qaysi davlat kuchliligini urishib emas, sport maydonlari aniqlab qo'ya qolishadi. Kurash esa aynan shu yo'nalishga — munosabatlarni tinchlik orqali hal etishga qaratilgan. Unda o'zaro kuch sinashishning ramziyligi bor. Chunki u og'riq orqali raqibni engishni nazarda tutmaydi, unda jon holatda, emaklab bo'lsa ham raqibni yengishga urinish yo'q (polvon gilamda emaklab yurmasligi lozim, yengishi, yyengilishidan qat'iy nazar uning sha'ni muhim). Shu o'rinda bir fikrimizga misol sifatida tarixiy ma'lumotni e'tiboringizga havola etmoqchimiz.

Samarqand viloyati, Jomboy tumanining G'ozir qishlog'ida shayx Xudaydod Azizon ziyoratgohi bor¹. Ziyoratga yurtimizning ko'plab hududlaridan yurtdoshlarimiz tez-tez kelib turishadi. Xo'sh, shayx Xudaydod Azizon kim bo'lgan? Tarixchilar B.Valixujayev va B.Urinboyevning "Xudoidodi Valiy" tarixiy ocherkida bu haqida batafsil so'z yuritilgan. Xorazmlik bo'lgan shayx Xudaydod Azizonning otasi dastlab Buxoroga ko'chib o'tgan va bir muncha vaqt o'tgach - Karman shahriga ko'chib o'tgan va nihoyat, uning sharqidagi ikki farasdagi (6-8 km) qishloqqa joylashgan. Aynan shu qishloqda 1462-yilda eski shayx Ortiqdan o'g'il tug'ilib, ismini Xudoyberdi qo'yishdi. Xudoyberdi boshlang'ich ma'lumotni qishloq maktabida olgan, Xudoyberdi 1480-yili Buxoroda Yassaviya tariqatining yetuk vakili Shayx Jamoliddin bilan uchrashadi, murid tutunadi. Tasavvuf piri, murshidi Shayx Jamoliddin Xudoyberdini iliq qarshilab, unga "Xudoydod" (Xudoyberdining tojikchasi) degan laqab beradi. Samarqand, G'ijduvon, Buxoro madrasalarida ta'lim olgan Xudoyberdi 1484-yili Karmanaga qaytadi, yassaviya tariqati va ilm-ma'rifatda kamolotga erishadi. 1490-yillar boshlarida esa Karmana janubidagi Qarnab dashti begi xalqqa zulm o'tkazayotganini eldan eshitib, poytaxt Buxoroga yo'l oladi. Navro'z saylidagi kurashda mamlakatning barcha polvonlarini yengganidan so'ng, Buxoro hukmdori Temuriyzoda Muhammad Boqiy Mirzo sovrunga nima tilashini aytganda, Bobo Xudoydod Valiy Qarnab begini mansabidan chetlatishni so'ragan ekan. Hukmdor zolim, ulus begini lavozimidan chetlatgach, dasht qishloqlari ahli zulmkor hukmdordan xalos bo'ladi.

Kurash ko'proq kuch emas, aqliy salohiyat, ma'naviy qarashlar majmui ekanini shundan bilish mumkin-ki, polvonlar jamiyatda og'ir-bosiqlik, tantilik timsoli, shunga sodiq bo'lishga intiladi. O'zbek tilida "polvon" so'zi har doim tantilik, mardlik, jumardlik kabi so'zlarning sinonimi bo'lib kelgan.

¹ K.T.Yusupov. "Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi". Toshkent: G'ulom nashryoti 2005 yil

O'tgan asrning boshlarida milliy ozodlik uchun kurashgan jangchilarni polvonlar boshqargan. Bir paytlar ularni "qo'rboshi" deb atashgan va bu so'z salbiy tusga ega bo'lib qolgan edi.

Aytish lozim, XIX asrning oxiri, XX asrning boshlari o'zbek kurashchilarining oltin davri edi. Aynan shu davrda butun dunyoga nom taratgan Ahmad polvon, Xo'ja polvonlar faoliyat ko'rsatgan edi.

Yunon tarixchilarining yozib qoldirishicha, O'zbekiston zaminida yashagan sak qabilasi qizlari o'ziga turmush o'rtog'ini u bilan kurash tushib, tanlagan. Keyinchlik ular kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlagan.

Kurash orqali jahon sport maydonlarida o'zbek so'zlari jaranglayotgani haqida ko'p aytiladi. Asosiysi, ushbu so'zlar ifodalaydigan ma'noda. Kurashda polvon olishi mumkin bo'lgan eng yuqori baho — "halol".



Eng yuqori jazo esa "g'irrom". Shu so'zlarning o'ziyoq o'zbek kurashining ma'ni-mohiyatini to'liq ochib beradi!

Kurash asrlar davomida O'zbek xalqining eng ommaviy va sevimli milliy o'yinlari qatorida e'zozlab kelingan. Kurash- yakka kurashning qadimiy turi bo'lib, uning ildizi zamonaviy O'zbekiston xududida joylashgan.

Kurash – o'zbekcha so'z bo'lib, halol yo'l bilan maqsadga erishish degan ma'noni bildiradi. O'tgan zamonlarda u milliy bayram, to'y va ziyofatlarda namoyish etiladigan jismoniy ko'ngilochar musobaqa sifatida mashhur bo'lgan. U haqidagi ma'lumotlarni ko'plab qadimiy adabiyotlarda ham uchratish mumkin.

Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan bir qancha ashyoviy dalillar mavjud. Akademik A.Asqarovning tadqiqotlariga ko'ra, arxeologik ilmiy ko'zatuvarlar, qidiruvlar natijasida aniqlangan ko'plab ashyoviy dalillar O'zbek kurashinig yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyod ekanligi isbotlanmoqda. Surxon, Zarafshon vohalarida hamda

Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalar, asori atiqalar, qoyalarga chekilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'liq shohidlik beradi.



2-rasm.

Hozirgi kunda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqni kutayotgan 6 topilma mavjudki, ularda kurashimizning juda qadimiyligi, uning o'ziga xos bir qator muhim jihatlari aks etganligiga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Chunonchi, Panjikentdan topilgan olishayotgan ikki pahlavonning devoriy surati So'g'diyona davlatchiligiga, ya'ni o'rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi.

Shunday ashyolardan yana biri silindr shaklidagi sopol idish bo'lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O'zbekiston) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o'z raqibini oyog'idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qullarini ko'tarib kurashga shaylanayotgan holati o'z ifodasini topgan. Bu idishlar bronza davriga oid bo'lib, u O'zbek kurashining tarixi yanayam ko'proq, ya'ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi.

O'tgan asrning boshlarida milliy ozodlik uchun kurashgan jangchilarni polvonlar boshqargan. Bir paytlar ularni "qo'rboshi" deb atashgan va bu so'z salbiy tusga ega bo'lib qolgan edi.

Aytish lozim, XIX asrning oxiri, XX asrning boshlari o'zbek kurashchilarining oltin davri edi. Aynan shu davrda butun dunyoga nom taratgan Ahmad polvon, Xo'ja polvonlar faoliyat ko'rsatgan edi.

Yunon tarixchilarining yozib qoldirishicha, O'zbekiston zaminida yashagan sak qabilasi qizlari o'ziga turmush o'rtog'ini u bilan kurash tushib, tanlagan. Keyinchlik ular kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlagan.

Kurash orqali jahon sport maydonlarida o'zbek so'zlari jaranglayotgani haqida ko'p aytiladi. Asosiysi, ushbu so'zlar ifodalaydigan ma'noda. Kurashda polvon olishi mumkin bo'lgan eng yuqori baho — "halol".


Eng yuqori jazo esa "g'irrom". Shu so'zlarning o'zaro o'zbek kurashining ma'ni-mohiyatini to'liq ochib beradi!

Kurash asrlar davomida O'zbek xalqining eng ommaviy va sevimli milliy o'yinlari qatorida e'zozlab kelingan. Kurash- yakka kurashning qadimiy turi bo'lib, uning ildizi zamonaviy O'zbekiston xududida joylashgan.

Kurash — o'zbekcha so'z bo'lib, halol yo'l bilan maqsadga erishish degan ma'noni bildiradi. O'tgan zamonlarda u milliy bayram, to'y va ziyofatlarda namoyish etiladigan jismoniy ko'ngilochar musobaqa sifatida mashhur bo'lgan. U haqidagi ma'lumotlarni ko'plab qadimiy adabiyotlarda ham uchratish mumkin.

Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan bir qancha ashyoviy dalillar mavjud. Akademik A.Asqarovning tadqiqotlariga ko'ra, arxeologik ilmiy ko'zatuvarlar, qidiruvlar natijasida aniqlangan ko'plab ashyoviy dalillar O'zbek kurashining yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyod ekanligi isbotlanmoqda. Surxon, Zarafshon vohalarida hamda

Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalar, asori atiqalar, qoyalarga chekilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'liq shohidlik beradi.




2-rasm.

Hozirgi kunda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqni kutayotgan 6 topilma mavjudki, ularda kurashimizning juda qadimiyligi, uning o'ziga xos bir qator muhim jihatlari aks etganligiga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Chunonchi, Panjikentdan topilgan olishayotgan ikki pahlavonning devoriy surati So'g'diyona davlatchiligiga, ya'ni o'rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi.

Shunday ashyolardan yana biri silindr shaklidagi sopol idish bo'lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O'zbekiston) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o'z raqibini oyog'idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qullarini ko'tarib kurashga shaylanayotgan holati o'z ifodasini topgan. Bu idishlar bronza davriga oid bo'lib, u O'zbek kurashining tarixi yanayam ko'proq, ya'ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi.

Navbatdagi topilma ham bronza davriga oid ikkita ot to'qasidir. O'zbek kurashi usullari tasvirlangan har ikkala to'qa, professor M.P.Gryaznovning yozishicha, sak-skif qabilalari ma'naviy dunyoqarashi ruhida ishlangan bo'lib, ko'chmanchilik davrining dastlabki bosqichlariga oiddir.



3-rasm.

Milodiy birinchi ming yillikning o'rtalariga oid kumush cho'mich gardishi sirtida ham ikki pahlavonning oishayotgan holati tasvirlangan. Mualliflarning fikricha, bu cho'mich Kadimgi Vizantiyaga taalluqligi ehtimoli ham mavjud.

Samarkand yaqinidagi Chelak qishlog'idan topilgan ashyolar ham o'tmishdan sado beradi. Geometrik naqshlar solingan ushbu idishlar orasida kumush dastali qadoqcha, ayniqsa, e'tiborni tortadi. Uning dastasi sirtida ikki polvon xuddi O'zbek kurashi uslubida bellashayotgani ifodalangan. Mazkur topilma ilk o'rta asrlar davriga oiddir.

Filologiya fanlari doktori Komil Imomovning tadqiqodlariga ko'ra, eng qadimgi doston, ertak va rivoyatlarda ham kurash haqida lavhalar uchraydi. Ularning mazmuniga diqqat qilsangiz matriarxat davriga tegishli ekanligiga amin bo'lasiz. Bundan kelib chiqadiki, O'zbek kurashining tarixi 5 ming yil oldingi moziyga borib taqaladi.

O'zbek xalqi hayotida Kurash an'anasining uch turi mavjud bo'lgan. Uning eng dastlabkisi jismoniy mashq sifatida - ekzogam nikoh

marosimi bilan bog'liq holda yo'zaga kelgan. Nikoh marosimida bo'lajak kelin-kuyovning kurash tushishini o'sha davrdagi hukumron ayollar uyushtirgan. Bu hodisa matriarxat saltanatining erini sinash va tanlash huquqi zaminida kelib chiqqan.

Zamonlar o'tishi bilan mazkur anananing shakli o'zgargan. Bunda kelin-kuyov bilan kurash tushishidan oldin biror dushman bilan kurashishi va uni yengishi lozim bo'lgan. Endilikda paydo bo'la boshlagan patriarxat munosabatlarga qarshi ziddiyatlar ham ayni shu zamonda yo'zaga kelgan. Keyinchalik esa qizlar o'zini yakkama-yakka jangda yengan yigitga turmushga chiqqanlar. Bundan tashqari, Sarmishsoy (Navoiy viloyati Navoiy tumanida, Nurota tizmasining Qoratog'i) da saqlangan qadimgi petrograflarda (qoyatosh rasmlari) ayollar nihoyatda bo'liq va zabardast, erkaklar esa jismonan chog'roq va oriqroq tasvirlangan. Bundan olis o'tmishda ayollar erkaklarga nisbatan ancha baquvat bo'lganligi anglashiladi. Shuningdek, polvonzodalar aslida jismonan baquvvat ayollardan tug'ilishi aqidasi ham xalq tarixiy xotirasida onaboshilik (matriarxat) davridan saqlanib qolgan bo'lsa, ajab emas. Jumladan, turkiy xalqlar tarixida ayol podshohlar o'tganligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Dono hukumlor va ulug' tarixchi Abulg'oziy Bahodirxon (1643-1663-yillarda Xorazm hukumdori) qozining "Shajarayi tarokima" asarida o'g'izlarning yetti ayol hukumdori haqida qiziqarli ma'lumot qoldirgan. Ulardan biri: Sirdaryo quyi oqimida Barchinlig'kent degan qadimiy shahar vayronalari hamda o'g'izlarning Barchin ismli pahlavon va oqila hukumdori dahmasi hozir ham saqlangan (Oroldan 120 km sharqda, Sirdaryodan 30km janubda). Qizilqumning O'zbekiston qismida Qizil xotun (IX asr) dahmasi ham mavjud, u saljuqiy turklar hokimasiga - nihoyatda kuchli, o'ktam va bahodir ayol sharafiga tiklangan yodgorlikdir. Demak, To'maris begoyim haqidagi rivoyatda ham tarixiy haqiqat chechaklari mavjuddir.

Epik kurashning uchinchi xil namunasida qiz kuyovlikka da'vogar yigitlardan g'olibini tanlagan. Ma'lum bo'ladiki, endi qiz kurash tushmaydi, biroq shart qo'yish va tanlash huquqini saqlab qoladi. "Alpomish", "Odisseya" va "Ramayana" singari dunyoviy eposlarda ana shunday lavhalar ko'zatiladi.

Etnografik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, O'zbekiston hududida kurash milodiy IX–X asrlarda keng rivoj topgan bo'lib, xalq sayllarida musobaqa o'tkazish an'anaviy tus olgan. Mahalliy aholi turli marosimlarni nishonlashda, ayniqsa Navro'z kunlarida kurash musobaqalarini o'tkazishga alohida ahamiyat bergan, deb yozadi S.P. Tolstov.

Bu bayramlarning dastlabki uch kunida yurt keksalari, ulug'lari rahbarligida kurash tomoshalari uyushtiriladi. Saylgohlar odamlar bilan to'lib toshgan. Shu munosabat bilan mahbuslar ozod qilingan, aybdorlarning gunohidan o'tilgan. Muhimi, o'tkazilgan bellashuvlar yosh avlod namoyondalari uchun chinakam har tomonlama chiniqish maktabini o'tagan.

O'zbek halq ijodi namunalari bo'lmish "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Rustam", "To'lg'anoy", "Kuntug'mish" kabi dostonlarda ham polvonlar kurashi madh etilib, epchil va chaqqon, zukko va donolari ulug'langan.

Milliy o'zligimizga, qadriyatlarimizga panja orqasidan qaralgan, kurashimiz tom ma'noda toptalgan davrlar ham bo'ldi.

Respublika, Xalqaro maydonlarda faqatgina sambo, dzyudo sport turlari bilangina shug'ulanish, ishtirok etish mumkin edi xolos. Milliy qadriyatlarimizning asosiy bo'g'ini hisoblangan Kurash hatto sport turi sifatida ham qaralmas edi.


Mustaqillik tufayli o'zbekning o'zligi o'ziga qaytdi. Unutilgan qadriyatlar, urf-odatlar qayta tiklandi.

Uch ming yil mobaynida Kurash Markaziy Osiyo hududidan tashqarida ma'lum bo'lmagan. Faqatgina 1991-yili O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatdagi qadimiy milliy qadriyatlarni yo'zaga olib chiqqan birinchi Prezidentimiz, 1992-yilning 16-martida milliy g'urur, milliy qadriyatlar, xalqimizning urf-odatlarini, halollik, mardlik, fidoyilik singari fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan O'zbek kurashini xalqaro miqyosga ko'tarish xususida, zamonaviy kurash qoidalarini yaratgan Komil Yusupovga bir qator qimmatli ko'rsatmalar berdilar.

Ana shu qoidalar asosida 1992-yildan nufuzli bellashuvlar boshlanib ketdi. Shahrisabzda Amir Temur, Surxondaryoda At-Termiziy, Buxoroda Bahouddin Naqshband, Andijonda Bobur Mirzo, Xorazmda Pahlavon Mahmud xotiralariga bag'ishlab Prezident sovrini uchun o'tkazilgan xalqaro turnirlar O'zbek kurashining yuksak darajaga ko'tarishda, jahon sport olamiga yangi tur bo'lib kirishiga katta hissa qo'shdi.

Chunki, kurash ilk musobaqalardayoq jozibadorligi va jangovarligi, go'zalligi va halolligi bilan barcha ishtirokchilarni, xorijiy mutaxassislari mehrini qozondi.

Milliy sport turini dunyoviy musobaqaga aylantirish uchun mamlakatimizda tashkil etilgan bu bellashuvlar kamlik qiladi albatta. Shuning uchun ham, Janubiy Koreya (1992), Kanada (1993), Litva (1994), Yaponiya (1994), Irlandiya (1995), Hindiston (1995) va Monako hamda Moskvada (1998) o'tkazilgan yirik sport anjumanlarida to'plangan mutaxassis va muxlislarga kurash bo'yicha mutaxassislarimiz tomonidan O'zbek kurashi haqida atroflicha ma'lumotlar berildi, ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.



4-rasm.

1.2. Kurashning xalqaro maydonlarga kirib kelishi

1998-yilning 6-sentabr sanasi O‘zbek kurashining bir necha ming yillik tarixi sahifalariga zarhal harflar bilan bitildi. Lotin Amerikasi, Evropa va Osiyo qit‘asining 28ta davlat vakillari ishtirokida Toshkentda bo‘lib o‘tgan ta‘sis kongressida “**Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi (IKA)**” tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati “Kurash” nomi bilan jahon maydoniga chiqqanligi e‘tirof etildi.

Shu kongressning o‘zida IKAning Ijroiya qo‘mitasi tashkil qilindi, kurashning xalqaro qoidalari bir ovozdan ma‘qullandi.

Xalqning qadim qadriyati, ori va g‘ururi bo‘lgan kurashning jahonga yo‘z tutishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan birinchi Prezidentimiz “Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi”ning Faxriy Prezidenti etib saylandi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti 1999-yilning 1-fevralida “Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan kurashimizning nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda keng quloqch yoyishiga xizmat qildi va qilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning 5 qit‘asida 100 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, Kanada, Boliviya, Braziliya, Janubiy Afrika Respublikasi, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Turkiya, Hindiston, Tailand, Yaponiyada kurashimizning millionlab ixlosmandlari bor. Hatto Dominikan

Respublikasi, Paragvay, Ekvador, Zambiya, Nigeriya mamlakatlari hamda Mavrikiya orollari ahli ham O‘zbek kurashi haqida yaxshi bilishadi.

Tabiiyki, zo‘r qiziqish, ishtiyoq bilan kurash usullarini o‘rganishmoqda.

“Kurash”, “ta‘zim”, “to‘xta”, “yonbosh”, “chala”, “dakki”, “halol” kabi o‘zbekcha so‘zlarning turli millat vakillaridan iborat hakamlar tilidan baralla yangrashi xalqimiz qalbiga olam-olam quvonch olib kirdi. “O‘zbek kurashi” degan jumla dunyo sportchilarining orasida halol va insonparvarlik, bag‘rikenglik va kurashuvchanlik xislatlarini namoyon etishda muhim va samarali vositaga aylandi.

Hozirgacha Amerika, Afrika, Evropa, Osiyo va Okeaniya qit‘alarida mintaqaviy konfederatsiyalar tashkil etilgan. Ular bu ommabop qadimiy sport turini targ‘ib qilish uchun ayni damda o‘z faoliyat doiralarini kengaytirmoqdalar.

140 ga yaqin davlatning Kurash Milliy Federatsiyalari Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasining to‘laqonli a‘zosi hisoblanadi.

Shu kungacha o‘n sakkiz marta Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi (IKA) ning Kongressi turli davlatlarda o‘tkazilgan va har yili kamida ikki marta Ijroqo‘m yig‘ilishi tashkil etilgan va ularda kurashni jahonda rivojlantirish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilingan;

1999-yildan shu kungacha IKA tomonidan kattalar o‘rtasida XII bor jahon chempionati muvaffaqiyat bilan o‘tkazilgan. Ushbu chempionatlarga O‘zbekiston, Turkiya, Vengriya, Armaniston, Mug‘uliston va Ukraina, Eron davlatlari mezbonlik qilgan. 2000–2016-yillar mobaynida yoshlar o‘rtasida 9 jahon chempionati Rossiya, O‘zbekiston, Dominikan Respublikasi va Turkiya, Hindiston mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan. Shuningdek, faxriylar o‘rtasida ikki bor jahon chempionati o‘tkazilgan. Pan Amerika, Osiyo, Evropa, Afrika va

Okeaniya qit'aviy chempionatlari har yili muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda;

Shu kungacha Buyuk Britaniya, Afg'oniston, Gretsiya, Turkiya, Eron, Ukraina, Rossiya, Fransiya, Mazambik, Janubiy Afrika Respublikasi, Boliviya kabi dunyoning ko'plab mamlakatlarida 500dan ziyod turli darajadagi xalqaro turnirlar tashkil etildi;

2001-yil Toshkentda Kurash xalqaro instituti va akademiyasi tashkil etilgan bo'lib, jahonda murabbiy va hakamlar tayyorlash hamda qayta tayyorlash, kurashning ilmiy-nazariy assoslarini yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Kurashni kelajakda yozgi Olimpiyada o'yinlari dasturiga kiritish bo'yicha Xalqaro Olimpiya Qumitasi rahbarlari, jumladan XOQ prezidenti va bir qator XOK ijroqo'mi a'zolari bilan mo'zokara jarayonlari olib borilmoqda;

2005-yil may oyida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi shtab kvartirasi joylashgan Shveytsariyaning Lozanna shahrida XOQ prezidenti Jak Rogge bilan rasmiy uchrashuv o'tkazildi;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Milliy Olimpiya Qo'mitasi shafeyligida 2005-yili Lozanna shahridagi Olimpiya mo'zeyida 1 yillik kurash ko'rgazmasi o'tkazildi;

Kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida 2002-yil Assotsiatsiyaning oliy nishoni – "IKA Oltin ordeni" IKA Kongressida ta'sis etilgan. Shu kungacha ushbu nufuzli orden bilan:

- O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti, Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi faxriy Prezidenti birinchi Prezidentimiz (O'zbekiston);
- Hindiston Milliy kongressi partiyasi yetakchisi Soniya Gandi (Hindiston);
- Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi prezidenti Jak Rogge (Belgiya);
- Osiyo Olimpiya kengashi prezidenti, XOQ a'zosi Shayx Axmad Al-Fahad As-Sabax (Quvayt);

• Butunjahon Olimpiya Qo'mitalari Assotsiatsiyasi prezidenti, Pan Amerika Olimpiya Qo'mitasi prezidenti, XOQ ijroqo'mi a'zosi Mario Vazkes Ranya (Meksika);

• Evropa Olimpiya qo'mitalari Assotsiatsiyasi prezidenti, XOQ a'zosi Patrik Xiki (Irlandiya);

• Afrika Milliy Olimpiya Qo'mitalari Assotsiatsiyasi prezidenti, XOQ a'zosi Lasanna Palenfoler (Kot-d' Ivuvar) taqdirlangan.

Osiyo, Afrika, Pan Amerika va Evropa kurash konfederatsiyalari faxriy prezidentligiga mazkur qit'a Olimpiya harakatining rahbarlari saylangan;

2002-yili Pusanda o'tgan navbatdagi yozgi Osiyo o'yinlarida kurashning ko'rgazmali chiqishi amalga oshirilgan. 2003-yili OOKning tegishli Nizomiga o'zgartirish kiritilib, kurash Osiyo sporti deya tan olingan.

2006-yilning dekabr oyida Qatarning Doha shahrida o'tgan 15 - yozgi Osiyo o'yinlarida;

2007-yil noyabr oyida Makaoda o'tgan yopiq inshootlardagi 2-Osiyo o'yinlarida;


2009-yil Vetnamning Xanoy shahrida bo'lib o'tgan yopiq inshootlardagi 3-Osiyo o'yinlarida;

2009-yilning oktabrida Tailanda yakkakurashlar bo'yicha o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida;

2013-yil Janubiy Koreyaning Incheon shahrida Yopiq inshootlar va yakkakurashlar bo'yicha Osiyo O'yinlarida Kurash musobaqalari bo'lib o'tdi.

2013-yil Osiyo Olimpiya Kengashi Kurashni Sohil Osiyo o'yinlari Dasturiga kiritdi.

2014-yil noyabrda Taylandning Puket otoli sohilida bo'lib o'tgan Osiyo sohil o'yinlarida Kurash musobaqalari nufuzli tartibda tashkil etildi.



Shu davrgacha qilingan ishlar, Osiyo qit'asida va Jahonda Kurashning yuksak taraqqiy etayotganligini inobatga olinib 2017-yil Turkmanistonning Ashxobod shahrida o'tkazilgan Osiyo Olimpiya qo'mitasining navbatdagi Kongresida Kurashni Yozgi Osiyo o'yinlari tarkibiga qo'shish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

2018-yil Indoneziyaning Jakarta shahrida o'tkazilgan XVIII yozgi Osiyo o'yinlarida qit'amizning eng sara polvonlari kurash sporti oltin medallari o'chun bahs olib bordi.

Kurash Sohil, Yopiq inshootlar va yakkakurashlar, bolalar va Yozgi Osiyo o'yinlari tarkibidan muqim o'rin egalladi.

Shuningdek, Panamerika o'yinlariga kiritilishi masalasida Panamerika Olimpiya Qumitasi raxbariyati bilan, Butunafrika yozgi o'yinlariga ham kurashni rasmiy kiritish bo'yicha Afrika Milliy Olimpiya qo'mitalari Assotsiatsiyasi bilan mo'zokaralarning amaliy bosqichiga o'tildi.

IKA bugunda to'laqonli xalqaro sport tashkilotiga aylandi. Boks, shaxmat, tennis, dzyudo, karate kabi sport turlari qatorida jahonda o'z o'miga'ega bo'ldi. Kurash Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining rasmiy sport turlari qatoriga kiritish va kelajakda yozgi Olimpiya o'yinlari dasturidan o'rin olish uchun Olimpiya Xartiyasi talablariga to'lik javob beradigan xalqaro sportga aylandi.

Nazorat savollari

1. Kurashning vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Kurash so'zining ma'nosi qanday?
3. Mintaqamiz tarixida ham kurash bilan shug'ullanganligini ifodalovchi qanday topilmalar mavjud?
4. Qaysi polvonlar xalqimizning og'zaki ijod namunalari orqali madh etilib, epchil va chaqqon, zukko va donolari ulug'langan?

5. Milliy sport turini dunyoviy musobaqaga aylantirish uchun qaysi davlatlarda yirik sport anjumanlari orqali mutaxassislar tomonidan O'zbek kurashi haqida atroflicha ma'lumotlar berilib, ko'rgazmali chiqishlar namoyish etilgan?

6. "Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi (IKA)" qachon tuzilgan?

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni qachon qabul qilingan?

8. "IKA Oltin ordeni" qachon ta'sis etilgan?

9. Hozirgi kunda "Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi (IKA)"ga netcha davlat a'zo hisoblanadi?

10. Kurash qanday nufuzli musobaqalar tarkibidan muqim o'rin olgan?

II BOB. KURASHCHILARNI JISMONAN TAYYORLASH ASOSLARI

2.1. Kurashchilarni jismoniy tayyorgarligi asoslari

Yuksak sport natijalariga erishish uchun sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasi, jismoniy xislatlar – kuchlilik, tezlik, chidamlilik, chaqqonlikni rivojlanishi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham kurash texnikasini takomillashtirishda jismoniy tayyorgarlik jarayoni mashg'ulotda yetakchi rol o'ynaydi.

Har tomonlama jismoniy tayyorgarlik organizmda barcha fiziologik funksiyalarning qayta qurilishini taqozo etib, organizmning garmonik rivojlanishini taminlaydi.

Jismoniy mashqlar xarakteri va ularni qo'llash uslublariga bog'liq ravishda organizmda uch turdagi o'zgarishlar ro'y berishi mumkin:

1. Bir-biriga hamkor;
2. Neytral;
3. Aksi, bir-biriga halal beruvchi.

Agar mashqlar kompleksida birinchisi qo'l kelsa bu mashqlarning ijobiy ta'siridir. Agar uchinchi ro'y bersa u mashqlarning salbiy ta'siridir.

Shu munosabat bilan UJT da ham jismoniy tayyorgarlik manbalarini to'g'ri tanlab olishning roli kattadir.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik. Har qanday sport turida mashg'ulot faqat maxsus mashqlarga taqalishi kerak emas. KJT ham MJT, ham UJT ni rivojlantirishga qo'l keluvchi mashqlar kompleksini o'z ichiga olishi lozim.

UJT ning asosiy vazifasi tezlik, kuchlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va chidamlilikni rivojlantirishga olib kelishi lozim. UJT yordamida o'zlashtirilgan bu xislatlar ularni rivojlantirishda kurash xususiyatini hisobga olgan holda asosiy sanaladi.

Yurish, yugurish, suzish, sport o'yinlari, umumrivojlantiruvchi gimnastika UJT manbai hisoblanadi. UJT mashqini to'g'ri tanlash kurashchining jismoniy rivojlanishiga qo'l keladi. Kurashchi yugurishi, sakrashi, arqonda ko'tarilishi, sport o'yinlari o'ynashi, shtanga ko'tarishi, murakkab akrobatik mashqlarni bajarishi va boshqa shu kabilarini qila olishi kerak. Ushbu amaliy mashqlarni bajarish kurashchidan yuksak sport natijalariga erishishni talab etmaydi. Chunki, bu mashqlarning hammasi amaliy sanaladi.

UJT sportchining funksional imkoniyatini har tomonlama kengaytiradi, yuklamani oshirish imkonini beradi, sport natijalarining oshishiga xizmat qiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik. Kurashchining maxsus jismoniy tayyorgarligi kurash uchun xos bo'lgan harakatlarni bajarishda jismoniy hislatlarni rivojlantirishga qaratilgan. U o'quv mashg'ulot hamda musobaqa ishlarining barcha bosqichlarida butun o'quv mashg'ulot jarayonining tarkibiy qismi sifatida foydalaniladi.

Texnikani egallash va takomillashtirish bilan aloqador mashqlar MJT manbai sanaladi.

Ko'pchilik holatda maxsus mashqlar texnikaning ayrim elementlari yoki usulni ifoda etib, uni kurashchi mustaqil, chuchela yoki boshqa sportchi bilan bajaradi. Maxsus mashqlar kurash texnikasini egallashda qo'l keladi.

Tezlikni tarbiyalash. Kurashchining tezligi uning ayrim harakatlarni qisqa muddatda bajara olishidir. Agar kurashchining tezligi haqida gapirgudek bo'lsak, ideal sifatida kurashchi reaksiya uchun eng kam vaqt sarflashi, raqibini tezda ushlab usul qo'llashi yoki himoya va qarshi hujum harakatini qo'llanish tushuniladi.

Tezkorlik hususiyatini ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin. Shulardan biri har xil harakat reaksiyasi shakllarining tezligini, ikkinchisi harakat tezligi har xil shaklni tashkil qiladi.

Kurash uchun harakat reaksiyasi tezligi alohida o'rin tutadi. U hakamning "Kurash!" ishorasi berilishidan boshlab (ko'rish, eshitish yoki taktik his etish bilan qabul qilingan) javob harakati boshlanishigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Oddiy va murakkab harakat reaksiyasi vaqti turlicha bo'ladi (0,15 soniyadan 0,5 soniyagacha).

Reaksiya tezligi faqat kurashchining himoya va qarshi hujum harakatlarida emas, balki hujum bilan aloqador harakatlarda ham ahamiyatga ega. Himoyalash va qarshi hujumda kurashchi taxdid soluvchi harakatni ko'zatadi va raqibning bu harakati ishora bo'lib, u bunga javob berishga majbur. Hujum harakatlarida hujum qilish uchun yaxshi sharoit yaratuvchi raqibning holati yoki uning harakati kurashchi uchun ishora bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, bellashuvda kurashchilarning ko'pchilik harakatlari ma'lum bir reaksiyaga qarshi javob reaksiyasi xarakteriga ega bo'ladi. Harakat reaksiyasining tezligi esa kurashchining har bir harakatida, harakatning himoya, qarshi hujum yoki hujum ruhida bo'lishdan qat'iy nazar yo'zaga keladi deyish mumkin.

Ushbu guruhlardan olinadigan mashqlarni kurashdagi asosiy usullarni o'rganganda qo'llash zarur.

2. Bo'yin mushaklarini (kurash ko'prigini) mustahkamlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar.

Ko'prik zamonaviy kurash texnikasida katta ahamiyatga ega: u kuraklarni gilamga tegishini oldini olib, jarohatlanishlardan himoyalashga xizmat qiladi.

Bellashuv olib borilayotgan vaqtda kurashchilardan biri jarohatlanishdan himoyalanganda yoki egilib tashlashni bajarayotgan paytda, kurash ko'prigini qabul qilishga majbur bo'ladi. Raqibga havfli holatda qarshilik ko'rsatish, shuningdek yiqilishdan saqlanish uchun turli xil hujum qilish va qarshi hujum texnik harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, mashg'ulotlarning birinchi kunlaridanoq umurtqa

pog'onasining o'zgaruvchanligiga bo'yin va yelka mushaklarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratishi kerak. Bo'yin, umurtqa pog'onasi mushaklarining o'zgaruvchanligini rivojlantirish va mustahkamlash o'quv-trenirovka jarayonida, shuningdek shaxsiy uy vazifalari bajarilganda amalga oshiriladi.

1-jadval

Kurashdagi texnik harakatlarni o'rganish uchun mashqlar guruhi

T/r	Yo'naltirilgan mashqlar	Uslubiy ko'rsatmalar
1.	Bo'yin mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.	Bo'yinning umurtqa pog'onasini mustahkamlash, egilib tashlashlarda yoki ularni o'tkazishda muvaffaqiyatsiz urinishlarda yiqilib tushgan paytda jarohatlanishni pasaytirish muvozanatni ta'minlash
2.	Tananing orqa qismi bilan kerilganda mushaklarning tezlik-kuch sifatini va umurtqa pog'onasining o'zgaruvchanligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.	Orqaga va yon tomonlarga egilish bilan bog'liq tashlashlarni bajarganda mushaklarning tezlik-kuch sifatlarini va o'zgaruvchanligini rivojlantirish.
3.	Qo'l mushaklarining statik chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.	Raqibni butun bellashuv davomida qo'yib yubormasdan, uni o'zoq vaqt davomida ushlab turish
4.	Oyoqlar mushaklari-rostlagichlarining tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.	Kurashdagi barcha tashlashlar bajarilganda, ularning barcha bajarilish fazalarida mushaklarning rostlagichlar ishtirok etadi.

Kurash ko'prigi (bundan buyon "ko'prik") – bu kurashchining orqaga bukilib, oyoqlar tovonlarini yyelka kengligida qo'yib, peshanasi bilan gilamga tayanib turgan holatidir.

Kurash ko'prigini o'rganish – kurashning asosiy qoidalaridan biridir. Mazkur element mustahkam o'zlashtirilgandan keyin, ko'krak orqali tashlashlar va ko'prik orqali ketishlarni o'rganish shart.

Yetarli darajada egiluvchanlikka ega va ko'prikni yaxshi egallagan kurashchilar murakkab usullar, qarshi usullar yoki hujum kombinatsiyalarini ko'proq o'tkazadilar. Kurashchilarni ko'prik holatida o'qitish va mashq qildirish ma'lum uslubiy ketma-ketlikda o'tkaziladi. Dastlab ko'prikka turish o'rganiladi. Buning uchun yyelkada yotgan holatdan oyoqlarni tizzadan bukib, kaftlarni gilamga tekkazib, ular yyelka kengligida tovonlarga qo'yiladi. Bel, ko'krak va umurtqa suyagining bo'yin sohalarida biroz ko'tariladi va egiladi. Birinchi yil mashq qilinayotganda kurashning mexanik tavsiflari bo'yicha asosiy tashlashlarga o'xshaydigan turdosh elementlar ustunlik qiladi. Ko'krak orqali tashlash shug'ullanuvchidan kuchli va rivojlangan bo'yin mushaklarini, bo'g'imlarda egiluvchanlikni, yiqilib tushganda muvofiqlashtirilgan o'zini o'zi saqlashni talab qilishi bilan murakkabdir, usullarni o'tkazish harakatlarda dovyuraklikni talab qiladi. Agar ushbu elementlar ishlanmagan bo'lsa, unda shug'ullanuvchilarning jarohat olishlari muqarrardir. Shundan so'ng "oldingi" kurash ko'prigini, so'ngra "orqa" ko'prikni o'rganish zarur.

Ko'prik holatida turishni o'rgatish va mashg'ulot vaqtida shaxsiy tajribani umumlashtirish xuddi shunday mashqlar majmuasini taklif qilish imkonini berdi.

1. Bir joyda turib boshni oldinga, orqaga va yon tomonlarga egish. Bosh bilan tomonlarga burilishlar. Bosh bilan aylana harakatlar qilish. Harakatlar dastlab sekinroq, bo'yin mushaklarini zo'riqtirib, shuningdek

mushak-antagonistlarni zo'riqtirmasdan maksimal darajada tez suratda bajariladi.

2. Ko'prikda turib boshni oldinga, orqaga va yon tomonlarga egish. Oyoqlarni keng qo'yib, qo'llar va peshanani gilamga tekkazib (egilgan holda ko'prik holati), bo'yinni oldinga, orqaga, tomonlarga egish, boshni burilishlar bilan va burilishsiz aylana harakatlar, bosh atrofida chapga va o'ngga oyoqlar bilan yugurishlar, iyak, ensa yoki kurak bilan gilamga tegish.

Avval ushbu mashqni qo'lga tayanigan holda, bo'yin mushaklari va tegishli mushakning mustahkamlanib borishi bilan qo'llarsiz harakatlanishga o'tiladi (qo'llar yyelkaga, boshga, ko'krakka yoki sonlarga qo'yiladi). Gilamga ensani tekkazib, oldinga harakatlar qilish, bir quloqni ikkinchisi bilan almashtirib turgan holda, burun bilan gilamga tegib orqaga harakatlar qilish.

3. Bosh va qo'llarni gilamga tekkazib turgan holatdan chapga va o'ngga bosh aytrofida yugurish quyidagicha bajariladi: o'tirgan holatdan oyoqlarni juftlamasdan peshana bilan gilamga tiralib, qo'llar bilak bilan gilamga qo'yiladi. Ko'rish maydonida biror narsani tanlab, unga qaraladi. Boshni burmasdan, bir tomonga bir necha marta qadam bosiladi va yelka bilan ko'prik holatiga pastga buriladi. Harakatlarni oyoqlar bilan xuddi shu yo'nalishda davom ettirib, ko'krak bilan pastga buriladi; holatni o'zgartirib, mashq qilayotgan kurashchi oyoqlari bilan bosh atrofida to'liq aylanani tasvirlaydi. Bunda eng yuqori kuch umurtqa pog'onasining bo'yin va bel qismiga tushadi.

4. Bosh orqali ko'prikdan burilish. Buning uchun qo'llar bilan raqibning oyog'ini ushlab, kuch bilan egiladi, tana og'irligini boshga ko'chirib, va oyoqlar bilan gilamdan itarilib, oyoqlar va tanani bosh orqali tashlab, peshanaga tayangan holda oyoqlarni juftlamagan holatda turiladi. Bundan keyin mazkur mashq raqibsiz bajariladi. Bu mashq umurtqaning egiluvchanligini oshirishga yordam beradi va kurashchida harakatlar

koordinatsiyasini, egiluvchanlikni va muvozanat hissini hosil qilishga yo'naltirilgan.

5. "Old" ko'prikdan "orqa" ko'prikka o'tishlar va aksincha harakatlar, yugurishlar, "orqa ko'prik"dan yurish. Bunda boshning holatiga e'tibor qaratish zarur. Tayangan vaqtda boshni orqaga, peshana qismini gilamga tirash, ya'ni peshonaga turish kerak.

Kurash ko'prigi usuli o'zlashtirilgandan so'ng ushbu texnik harakatni mustahkamlab olish zarur; buning uchun quyidagi mashqlar taklif etiladi:

Sonni chiqarib turgan holatda ko'prikdan ketishlar, peshana va oyoqlar gilamga tiralgungacha yugurib kelishlar (raqibsiz).

Umurtqa pog'onasining o'zgaruvchanligini va yelka mushaklari rostagichlarining tezlik-kuch fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar.

Umurtqa pog'onasining o'zgaruvchanligini va yelka mushaklari rostagichlarining tezlik-kuch fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar bajarilganda turli mashqlarni qo'llash tavsiya etiladi.

1. Tik turgan holatda orqaga bukilib, qo'llar kaftlariga yetish. Oyoqlar yelkadan keng.

2. Tizzada tik turgan holatdan, boshni orqaga tashlab va egiltirib, qorinda ko'krakdan gilamga dumalash, qo'llar bilakni ushlagan holda orqada birlashtiriladi.

3. Birinchi kurashchi qorinda yotadi, ikkinchisi uning ustida turib, shug'ullanuvchining qo'llarini ushlab olib, yumshoq kuch bilan uning tanasining yuqori qismini imkoni boricha ko'taradi va yumshoq tortuvchi harakatlar bilan takroran o'ziga qaratib buradi.

4. Birinchi kurashchi qorinda yotadi, ikkinchisi uning ustida turib, qo'llari bilan birinchi kurashchining boldir va tovon suyagini birlashtirib turuvchi bo'g'inini ushlab oladi va oyoqlarini qayiradi: ushbu holatda belida oxirigacha egiltirishga harakat qilib, yengil harakatlar bilan aylantiradi.

Ikkala mashqlarda ham shug'ullanuvchining oyoq va qo'llari to'g'irlangan, biroq qattiq tortib turilmagan holatda bo'lishi kerak.

5. Qorinda yotib, orqaga faol tarzda egilish. Mashq bilan shug'ullanayotgan kurashchi oldinga tortilgan oyoq va qo'llarini imkoni boricha yuqoriga ko'taradi va ularni chegaralangan balandlikda ushlab turadi. Xuddi shu holatda butun vaqt davomida maksimal egilishni saqlagan holda, ko'krakka oldinga, sonda orqaga dumalaydi.

6. Tizzalarda tik turgan holatdan orqaga qayrilib, ko'prikka tushiladi. Bosh bilan gilamga tekkan paytda yogalar bilan itarilish, bosh orqali qayrilish va peshanaga tayangan holda oyoqlar ikki yoqqa ochilgan holatda turish. Dastlab, qo'llarga tayangan holda bajarish. Yiqilish peshana qismiga tik holatda sodir bo'lishi kerak. Agar yiqilish noto'g'ri, ya'ni ensa qismiga sodir bo'layotgan bo'lsa, itarilish yumshatilmaydi, umurtqa suyaklarining umurtqa pog'onasining vertikal o'qi bo'ylab o'ta jiddiy siqilishi sodir bo'ladi, bu esa alohida umurtqa suyaklarining shikastlanishiga olib keladi.

Avval mashq tizzalarida turib, mashq qiluvchining tizzasiga tayanib oladigan raqib yordamida bajariladi.

7. Orqa bilan qo'llar va oyoqlar o'zatiib yotgan holatdan yon tomonlarga dumalash, oyoqlar bilan qoringa burilib oladi, va shunday qayrilish kerak-ki, bunda qo'l va oyoqlar polga tegib ketmasligi kerak. Mashq qilayotgan kurashchining qo'l va oyoqlariga to'ldirma ko'ptok berib, mashqni murakkablashtirish kerak.

8. Yarim o'tirgan holatdan oyoqlarni to'g'irlash, qorin bilan oldinga itarilish qilish, qayrilish, oyoq uchida turish (xuddi shuni maneken bilan bajarish).

9. Yon tomonda turgan raqib yordamida orqada yotgan holatdan turish. Bukilgan oyoqlarni ochilgan holatda qo'yib, qo'lni o'z oldida turgan raqibga o'zatish. Uning yordamidan foydalanib, qo'l bilan tortilib va

beldan bukilib, qo'llarni qo'yib yubormasdan, oyoqlar to'g'irlangungacha turish, va yana dastlabki holatga yumshoq tushish.

10. Ko'prikda turgan holatdan, gimnastik ko'prikning kurash holatidan qo'llarda siqilish. Ko'prikda turish, ikkala qo'lni boshning orqasiga qo'yish, gimnastik ko'prik holatigacha siqilish va dastlabki holatga tushish.

11. Panjalarga va peshanaga mustaqil ravishda ketma-ketlik bilan tayanib (kurashchini qo'llarini ushlab turish tavsiya etilmaydi, chunki bu mashqlarning bajarilishini murakkablashtiriladi) beldan va kurak ostidan ushlab yordam berib turuvchi ikki raqib yordamida devorga qo'l bilan ketma-ketlikda tiralish yordamida devorga orqasi bilan turish holatlaridan ko'prikka turish.

12. Bel, ko'krak va bo'yin umurtqa suyaklarida kuchli qayrilib, peshanasiga to'g'ri turib oladi. Bunda bosh yaxshigina orqaga tashlangan, mushaklar esa taranglashtirilgan bo'lishi zarur.

13. Raqib yordami bilan va yordamisiz ko'prik holatiga tushish va turish. Mashq bajarayotgan kurashchi oyoqlarini ochib, qo'llarini yuqoriga ko'tarib hamda sherigining yordami bilan qo'llarda ko'prik holatigacha orqaga engashadi. Xuddi shu mashqni sheriksiz bajarish ham mumkin.

14. Qo'llarda ko'prik holatidan qo'l va oyoqlarni navbatma-navbat ko'tarish. Qo'llarda ko'prik holatida turib, navbatma-navbat o'ng va chap oyoqni, o'ng va chap qo'llarni oxirigacha ko'tarish.

15. Shnurning qattiqligini davriy tarzda o'zgartirib turgan holda rezina shnurni ushlab orqaga keskin qayrilishlar. Xuddi 14-mashqni bajargandek, biroq koptok og'irligini davriy ravishda o'zgartirib turgan holatda to'ldirma koptokni ushlab turgan holda.

16. To'ldirma koptokni tomonlarga, orqaga otishlar. O'rganuvchi sherigidan orqasi bilan 4 m masofada turib, chapga (o'ngga) burilib, koptokni orqasiga otadi va boshini burab, uni ko'zatadi, sherigi esa koptokni tutadi, va o'z navbatida uni xuddi shu tarzda otadi.

Bundan tashqari, ko'prikda turgan holatda, snaryadlar bilan quyidagi mashqlar qilinadi:

a) ko'krakdan cho'zilgan qo'llarga shtangalar tortish;

b) og'irligi 50-60 kg bo'lgan kichikroq (yaxshisi sharsimon) shtangalarni va tarozi qadoqtoshlarini boshining orqasidan tortish, snaryadlarni cho'zilgan qo'llar bilan ushlab harakatlar murakkablashtiriladi;

v) to'ldirma koptoklar, mashg'ulot qopchalari (turgan paytda qop ko'krakda qoladi) bilan tik turish holatida ko'prikka turish.

Ushbu mashqni ko'prik holatida turgan kurashchiga, yuqoridan o'tiradigan raqib bilan ham bajarish mumkin.

17. Ko'prikda qotib turgan holatda manekenni ikkala qo'li bilan quchoqlab, uni o'zida ushlab turish. Tik turgan holatdan o'zi orqali manekenni tashlab yuborish va ko'prikka turish va ko'krak bilan unga burilish.

Bo'yin mushaklarining eti o'zilishiga yo'l qo'ymaslik uchun, oyoqlar va bosh bilan gilamga tiralib qilinadigan harakatlar, mushaklarni o'rtamiyona zo'riqtirgan holda 10 martadan ortiq qilmasdan bajariladi. Har safargi mashg'ulotda mashqlar dozasi 1-2 baravarga oshirib boriladi (kurashchi 20-25 takrorlashlarni bajaradi). Dastlabki 10ta harakat mushaklarni unchalik zo'riqtirmasdan, so'ngra zo'riqtirish asta-sekin oshirib borilgan holda, so'nggi harakat esa maksimal kuch bilan bajariladi. Maxsus mashqlarni o'zlashtirishning bunday ketma-ketligi bo'yin mushaklarining shikastlanishini oldini oladi, umurtqa pog'onasining qayishqoqligini va orqa mushak-egiltirgichlarining tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tezlik-kuch jihatdan tayyorgarlikni oshirishga yo'naltirilgan vositalarga maxsus va umumiy rivojlantiruvchi tusdagi mashqlar kiradi.

4. Yaktakning o'zunligi tizzadan 15-20 sm balandda bo'lishi kerak. Yaktak ustidan bel atrofida ikki marta o'ralib bog'langan belbog'ning tugundan uchigacha bo'lgan qismi 20 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Yaktak englari o'zunligi ko'pi bilan qo'l tirsagidan 20-25 sm pasda bo'lishi kerak. Qo'l va eng orasi 8 sm bo'lishi kerak. Ishton o'zunligi oyoq to'pig'igacha bo'lishi kerak. Oyoq va ishton orasidagi bo'shliq butun o'zunligi bo'yicha 15 sm. Belbog' 4-5 sm eniga, rangi qizil bo'lishi kerak.

5. Kurashchi ayollar yaktak ichidan oq rangli mahkam futbolka yoki kalta engli yoqasiz ko'ylak kiyib triko ichida bo'lishi kerak.

6. Agar kurashchining kiyimi (yaktak va ishton) talablarga javob bermasa, hakam kurashchidan uni almashtirishni talab qilishi shart. Kurashchi qo'llarini oldinga o'zatib, hakamni yaktak englari belgilangan qoidalarga mos ekanligiga ishonirishi shart.

7. Har ikkala jinsdagi kurashchilar ham yalang oyoq kurashadilar.

Kurashchilarning yoshi va vazn toifalari

1. Musobaqa qatnashchilari quyidagi vaznlarga bo'linadilar:
Bolalar (12-13 yosh)-33, 36, 40, 44, 48, 52, 56, 60, 65, 70, Q 70 kg.
O'smirlar (14-15 yosh)-38, 42, 46,50, 55, 60, 65, 71, 77, 83, Q 83 kg.
Yoshlar (16-17 yosh)-42, 46, 50, 55, 60, 65, 71, 77, 83, 90, Q 90 kg.
Katta yoshdagilar (18-35 yosh)-60, 66, 73, 81, 90, 100, Q 100 kg.
36-45,46-55,56-60,61-65 yosh va undan katta yoshdagilar-60,70,80,90, Q 90 kg.
2. Qizlar va yoshlar uchun yosh va vazn toifalari:
Qizlar - (12-13 yosh)-30, 33, 36, 40, 44, 48, 52, 57, q 57 kg.
(14-15 yosh)-33, 36, 40, 44, 48, 52, 57, 63, Q 63 kg.
(16-17 yosh)-36, 40, 44, 48, 52, 57, 63, 70, Q 70 kg.
Ayollar- (18 yoshdan yuqori)-48, 52, 57, 63, 70, 78, 87, Q87 kg;
3. Yoshlar va katta yoshdagi polvonlar qaysi vaznda qatnashishlaridan qat'iy nazar (Bosh hakam ruxsati bilan) mutloq vaznda kurashishlari mumkin.

Bellashuv vaqti

- musobaqalarda kattalar o'rtasidagi bellashuv 5 daqiqa;
- o'smirlar va 35 yoshdan yuqoridagilar uchun 4 daqiqa qilib belgilanadi;
- bolalar va 56 yoshdan yuqoridagilar hamda ayollar uchun bellashuv vaqti 3 daqiqadan iborat bo'lishi kerak.

Kurashning umumiy qoidalari. Kurashda faqat tik holatda va qoidada ruxsat berilgan usullar qo'llash orqali kurashiladi. Tik holatda bajarilgan tashlashlar hakamlar tarafidan baholanadi.

- Baholar teng bo'lganda, ohirgi oxirgi baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi.

- Kurashchining baho va jazosi teng bo'lsa, baho ustunlikka ega bo'ladi.

- g'oliblik, bellashuv davomida hech qanday usul qo'llanilmasdan teng holat bo'lsa hakamlarning ko'pchilik fikriga ko'ra beriladi. Hakamlar g'olibni yaktaklar rangidagi bayroqchalar orqali aniqlaydilar.


Agar kurashchilarda ogohlantirishlar bir xil va ketma-ket berilgan bo'lsa, g'oliblik birinchi ogohlantirish olganga beriladi. Ogohlantirishlar bir vaqtda berilsa ("TENG"), g'olib hakamlarning ko'pchilik fikri bilan aniqlanadi.

Musobaqalar Olimpiya tizimi bo'yicha qayta bellashuvlarsiz o'tkaziladi. Kurashda usul gilamning ichkarisida boshlanib gilam chizig'idan tashqarida nihoyasiga etsa baholanadi.

6.2. Kurash musobaqalarida qo'llaniladigan iboralar va ishoralar


1. "TA'ZIM" –kurashchilar o'ng qo'llarini chap ko'ksida tutgan holda bir-birlariga bo'yin egib salomlashish uchun ishlatiladigan ibora. Bu iborani ishlatganda hakam ikkala qo'lini kaftlari bilan oldinga qaratgan holda yon tomonga ochib, keyin barmoqlari yuqoriga qaragan

holda balanddan bukib qo'llarini ichkariga aylantirish ishorasini qiladi, bu vaqtda ikkala qo'lining barmoqlari bir-biriga uchma-uch holiga kelishi kerak.




42-rasm. Ta'zim

2. "KURASH" -kurashchilar bir-birovlariga ta'zim qilib salomlashgandan keyin bellashuvni boshlash uchun hakam tomonidan ishlatiladigan ibora. Hakam o'ng qo'lini kaftlari bilan yon tomonga qaratgan holda tirsakdan bir oz bukib ishora qiladi.



43-rasm. Kurash

3. **“TO‘XTA”** –bellashuv davom etayotgan vaqtda bellashuvni to‘xtatish uchun ishlatiladigan ibora. Bu vaqtda hakam o‘ng qo‘lini kafti bilan oldinga qaratgan holda (barmoqlari bir joyga jipslashgan) oldinga cho‘zib ishora qiladi.



44-rasm. To'xta

4. **“HALOL”** – kurashchilarda birovni sof g‘alaba qilgan vaqtda ishlatiladigan ibora. Hakam qo‘lini kafti bilan oldinga qaratgan holda yuqoriga ko‘tarib (barmoqlar jips holda) ishora qiladi.


- a) ikki **“YONBOSH”** bahosi olsa;
- b) raqib usul ishlatib o‘zi ikkala kuragiga yiqilsa beriladi;
- v) raqibiga **“G‘IRROM”** berilsa;
- g) **“YONBOSH”** olgan holda raqibida **“DAKKI”** bo‘lsa;
- d) raqib 3 daqiqa ichida gilamga chiqmasa.



45-rasm. Halol

5. **“YONBOSH”** - hakam qo‘lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda (barmoqlar bir joyda jips) yon tomonga cho‘zib ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo‘llab raqibini tezlik bilan bir kuragiga yiqitsa;
- b) yoki raqibiga **“DAKKI”** e‘lon qilinsa beriladi.



46-rasm. Yonbosh

6. “CHALA” – baho kurashchilardan biri usul qo‘llab, usulni oxirigacha to‘liq bajara olmasa ishlatiladigan ibora, hakam qo‘lini kafti bilan oldinga qaratgan holda tirsagidan bukib ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo‘llab to‘lig‘icha bajara olmasa;
- b) raqibiga “TANBEH” e‘lon qilinganda beriladi;
- s) nechta “CHALA” bahosi berilishiga qat’iy nazar ularning umumiy soni jamlanmaydi;
- d) agar ikkala kurashchida ham bir-nechtadan “CHALA” bo‘lsa, g‘oliblik ko‘p “CHALA” olgan kurashchiga beriladi.



47-rasm. Chala

7. “TANBEH” – birinchi ogohlantirish, hakam qo‘lini oldinga cho‘zgan holda barmog‘i bilan tanbeh olgan kurashchini ko‘rsatib ishora qilib shu iborani ishlatadi.

“TANBEH” - ogohlantirish unchalik katta bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘ygan kurashchiga beriladi:


- a) kurashchi ataylab qochayotib, raqibga ushlab olishga yo‘l qo‘ymasa;

b) ataylab raqibni gilamdan itarib chiqarsa yoki o‘zi gilamning xavfli maydoniga chiqib ketsa;

v) ataylab o‘zining kiyidaqiqai, ishtonini hakam ruxsatisiz echib yuborsa;

g) ataylab raqibning ishtonidan yoki oyoqlaridan ushlasa.

d) ushlab olgandan keyin 20-25 soniya vaqt davomida usul qo‘llamasa.



48-rasm. Tanbeh

8 “DAKKI” – ikkinchi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam qo‘lini musht qilib tirsagidan bukib ishora qiladi. (qo‘l barmoqlari musht holiga kelgan va kaft old tomonga qaragan bo‘lishi kerak.




49-rasm. Dakki

9 **“G‘IRROM”** – oxirgi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam qo‘lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho‘zib ikki-uch marta pastga silkitib ishora qiladi.

“G‘IRROM” – katta xatoga yo‘l qo‘ygan (yoki DAKKI jazosini olgan va keyingi paytda unchalik katta bo‘lmagan yoki o‘rta toifadagi xatoga yo‘l qo‘ygan) kurashchiga e‘lon qilinadi:


a) bellashuv davomida raqibining, hakamlarning sha‘niga noma‘qul so‘zlarni ishlatsa, baqirsa har xil imo-ishora qilsa;

b) agar kurashchi bellashuv davomida raqibiga bila turib jarohat etkazsa, unda raqibga **“G‘IRROM”** e‘lon qilinib, shikastlangan kurashchiga **“HALOL”** beriladi.




50-rasm. G‘irrom

10. **“BEKOR”** – olishuv to‘xtatilganda keyingi harakatlar uchun yoki bajarilgan usul baholashga noloyiq deb topilgan vaqtda ishlatiladigan ibora. Hakam qo‘lini kafti bilan yon tomonga qaratgan holda (barmoqlari jipslashgan) oldinga cho‘zib 2-3 bor chapga va o‘ngga harakatlantirib ishora qiladi.



51-rasm. Bekor

11. **“VAQT”** – bellashuv vaqti tugaganligini ko‘rsatish uchun ishlatiladigan ibora, hakam ikkala qo‘lini yuqoriga ko‘tarib kaftlarida bir-biriga qadagan holda bilakdan qo‘shib ishora qiladi.



52-rasm. Vaqt

Izoh: ishoralar o'rtadagi hakamning ikki tomonda turgan kurashchilarning yaktagi rangiga qarab o'ng yoki chap qo'l bilan ko'rsatiladi. O'rtadagi hakam qo'l bilan ishoralarni ko'rsatish bilan bir vaqtda gilam o'rtasida tik holatda iboralarni ham baland ovoz bilan aytib borishi lozim.

Baho va ogohlantirishlar raqamlar (10, 5,3,1,0) bilan e'lon qilinadi, ammo ularning umumiy soni jamlanmaydi.

BELLASHUV NATIJALARI

BAHO		OGOHLANTIRISH	
HALOL	10:0	G'IRROM	0:10
YONBOSH	5:0	DAKKI	0:5
CHALA	3:0	TANBEX	0:3
DAKKI-YONBOSH	0:10	YONBOSH-DAKKI	10:0
TANBEX-CHALA	0:3	CHALA-TANBEX	3:0
YONBOSH-YONBOSH	0:1	DAKKI-DAKKI	1:0
CHALA-CHALA	0:1	TANBEX-TANBEX	1:0

XULOSA

Milliy istiqlol sharofati bois O'zbek xalqi tom ma'noda o'z erki, hurligi va ozodligiga erishib, ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralari sari yo'zlandi. Uning ko'p asrli, boy ko'hna tarixi, rango-rang betakror madaniyati, ma'naviyati, noyob osori atiqalari yangidan bo'y ko'rsatib, hayotga qaytarildi.

Bugun hayotimizdan o'z munosib nufuzini topib, zamondoshlarimizning e'zozu-e'tiborini qozonib, jahon nazariga tushib dovrug' va shuhrat qozongan O'zbek kurashi ham o'tmishi buyuk xalq ma'naviy qadriyatlarini biri sifatida alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har tomonlamma qo'llab-quvvatlashidan sevimli kurashimizning yangi davri boshlandi. Jahon o'zra Kurash nomli O'zbek brendi keng yoyilmoqda. Dunyoning 140 dan ziyod davlatlarida milliy federatsiyalar tashkil etilib, muntazzam ravishda milliy, qit'aviy va Xalqaro musobaqalar o'tkazib kelinmoqda.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmasi orqali Kurashimiz tarixi, etimologiyasi, boshqa yakka kurash sport turlaridan farqi, rivojlanishi, o'rganish va o'rgatish metodologiyalari, usullar, harakatlar dinamikasi, musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha qoidalar majmualari haqida keng tahliliy ma'lumot berishga harakat qilindi.

Shuningdek, Jahon chempionatlari mundariyasi, 1999-yildan 2019-yilgacha o'tkazilgan kattalar o'rtasida barcha jahon chempionatlari g'olib va sovrindorlari to'liq ro'yxati taqdim etildi.

Nazorat savollari

1. Kurashda musobaqalar qanday turlarga bo'linad?
2. Kurashda hakamlar hay'atitarkibi va ularning vazifalari qanday?
3. Kurash kiyimlariga tavsif bering?
4. Kurashchilarning yoshi va vazn toifalarini sanab bering?
5. Kurash musobaqalarida bellashuv vaqti qancha davom etadi?

6. Kurash musobaqalarida qo'llaniladigan iboralar va ishoralarga tavsif bering?

7. Bellashuv davom etayotgan vaqtda bellashuvni to'xtatish uchun ishlatiladigan ibora qaysi?

8. Kurashchilarda birovi sof g'alaba qilgan vaqtda ishlatiladigan ibora qanday?

9. Unchalik katta bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ygan kurashchiga nisbatan qanday ibora qo'llaniladi?

10. Hakam qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho'zib ikki-uch marta pastga silkitishi qanday iborani ifodalaydi?

ASOSIY IBORA VA TUSHUNCHALAR LUG'ATI (GLOSSARIY)

Bardor usullari – kurashchi usulga mos ravishda raqib yaktagining qulay joyidan ushlab, muvozanatdan chiqarib, o'ziga ishonch hosil qilib, raqibini ko'tarib uloqtiradigan barcha usullar.

Bekor – olishuv to'xtatilganda keyingi harakatlar uchun yoki bajarilgan usul baholashga noloyiq deb topilgan vaqtda ishlatiladigan ibora. Hakam qo'lini kafti bilan yon tomonga qaratgan holda (barmoqlari jipslashgan) oldinga cho'zib 2-3 bor chapga va o'ngga harakatlantirib ishora qiladi.

Dakki – ikkinchi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam qo'lini musht qilib tirsagidan bukib ishora qiladi. (qo'l barmoqlari musht holiga kelgan va kaft old tomonga qaragan bo'lishi kerak.

Didaktika (grekcha didaktikos – o'qitaman, o'rgataman) – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

G'irrom – oxirgi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho'zib ikki-uch marta pastga silkitib ishora qiladi.

Halol – kurashchilarda birovi sof g'alaba qilgan vaqtda ishlatiladigan ibora. Hakam qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda yuqoriga ko'tarib (barmoqlar jips holda) ishora qiladi.

Kurash – kurashchilar bir-birovlariga ta'zim qilib salomlashgandan keyin bellashuvni boshlash uchun hakam tomonidan ishlatiladigan ibora. Hakam o'ng qo'lini kaftlari bilan yon tomonga qaratgan holda tirsakdan bir oz bukib ishora qiladi.

Kurash – yakka kurashning qadimiy turi bo'lib, uning ildizi zamonaviy O'zbekiston hududida joylashgan. Kurash - ko'proq kuch emas, aqliy salohiyat, ma'naviy qarashlar majmui ekanini shundan bilish mumkinki, polvonlar jamiyatda og'ir-bosiqlik, tantilik timsoli, shunga sodiq

bo'lishga intiladi. O'zbek tilida "polvon" so'zi har doim tantilik, mardlik kabi so'zlarning sinonimi bo'lib kelgan.

Kurashchilarni jismoniy tayyorgarligi asoslari – yuksak sport natijalariga erishish uchun sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasi, jismoniy xislatlar – kuchlilik, tezlik, chidamlilik, chaqqonlikni rivojlanishi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham kurash texniksini takomillashtirishda jismoniy tayyorgarlik jarayoni mashg'ulotda yetakchi rol o'ynaydi.

Mashg'ulot umumiy zichligi – deb, pedagog nuqtai nazardan tug'ri foydalanilgan vaqtning butun mashgulot davomidagi nisbatiga aytiladi.

Mashg'ulotning motor zichligi – deb, kurashching bevosita harakat faoliyatiga, mashk bajarish uchun sarflangan vaktga aytiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) – tanlangan sport turi talablariga qat'iy rioya qilgan holda sportchining harakat xususiyatlarini rivojlantirishga, organlar va tizimlarni (nafas olish, yurak-qon tomir, mushak) mustahkamlashga, ularning funksional imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan jismoniy mashqulotlar tizimi.

Musobaqa maqsadi - kuchli sportchilar va jamoalarni aniqlash, sport mahoratini takomillashtirish, jismoniy madaniyat va sportni targ'ibot qilish, sport tashkilotlari, murabbiylar, sportchilar, hakamlar faoliyatiga ob'ektiv baho berishdir.

Qo'shsha usullari – kurashchi raqib yaktagini qulay joyidan ushlab, muvozanatdan chiqarib, o'ziga ishonch xosil qilib, har tomondan to'xtamasdan oyoq bilan urib bajaradigan barcha usullar.

Sport - qisqa ma'noda shaxsiy musobaqa faoliyati deyilsa, keng ma'noda shaxsiy musobaqa faoliyati, shu faoliyat asosidan kelib chiqadigan maxsus tayyorgarlik hamda uning me'yor va yutuqlari tushuniladi.

Sport hakami butun musobaqa davomida sportchilarning tasdiqlangan qoidalarga rioya qilishlari va musobaqani nizomga muvofiq o'tkazilishini nazorat qiluvchi shaxs.

Sport mashg'ulotlari - bu sport tayyorgarligini bir qismidir. Sport mashg'ulotlari maxsus jarayonni o'z ichiga olib, aniq tanlangan sport turi bo'yicha, sportchini yuqori ko'rsatkichlarga erishishida, jismoniy mashqlar orqali organizmni rivojlantirish, jismoniy sifatlar va qobiliyatlarni takomillashtirish uchun foydalanilgan maxsuslashtirilgan jarayondir.

Sport musobaqasi – sportning alohida turlari bo'yicha sportchilar yoki sportchilar jamoalari o'rtasida musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida uning tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) asosida o'tkaziladigan bellashuvlar.

Supurma usullariga kurashchi usuliga mos ravishda raqib yaktagining qulay joyidan ushlab, raqibini muvozanatdan chiqarib, o'ziga ishonch xosil qilib, o'ng yoki chap oyog'i bilan "supurib" qilinadigan barcha usullar kiradi.

Ta'zim – kurashchilar o'ng qo'llarini chap ko'ksida tutgan holda birlariga bo'yin egib salomlashish uchun ishlatiladigan ibora.

Taktika yunoncha "taktikus" so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilida "tartiblashtirish" ma'nosini anglatadi.

Tanbeh – birinchi ogohlantirish, hakam qo'lini oldinga cho'zgan holda barmog'i bilan tanbeh olgan kurashchini ko'rsatib ishora qilib shu iborani ishlatadi.

Texnika – yunoncha "texnus" so'zdan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida "san'at" ma'nosini anglatadi. Sport amaliyotida va xususan, bazaviy sport turlarida "texnika" harakat malakalari, o'yin usullarining tuzilish shakli, mazmuni va ijro etish tartibini ifodalaydi. Muayyan harakat (o'yin usuli – zarba, to'p uzatish, to'p kiritish va h.k.) texnikasi maxsus mashqlar yordamida qanchalik ko'p va uzoq vaqt takomillashtirilsa, u shunchalik go'zal, chiroyli, engil, bioenergetik jihatdan tejimli, samarali, aniq va "san'at" darajasida ijro etiladi.

To'xta – bellashuv davom etayotgan vaqtda bellashuvni to'xtatish uchun ishlatiladigan ibora. Bu vaqtda hakam o'ng qo'lini kafti bilan oldinga

qaratgan holda (barmoqlari bir joyga jipslashgan) oldinga cho‘zib ishora qiladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) – bu insonning har tomonlama jismoniy rivojlanishiga, salomatligini yaxshilash va barcha jismoniy sifatlar (chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik, tezlik, kuch)ni rivojlantirishga qaratilgan jismoniy mashqulotlar tizimi.

Vaqt – bellashuv vaqti tugaganligini ko‘rsatish uchun ishlatiladigan ibora, hakam ikkala qo‘lini yuqoriga ko‘tarib kaftlarida bir-biriga qadagan holda bilakdan qo‘shib ishora qiladi.

Yelka usullari – kurashchi raqib yaktagining qulay joyidai ushlab, raqibni muvozanatdan chiqarib, raqibni yelkadan oshirib tashlaydigan barcha usullar.

Yonbosh – hakam qo‘lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda (barmoqlar bir joyda jips) yon tomonga cho‘zib ishora qiladi.

Yonbosh usullari – kurashchi raqib yaktagining qulay joyidan ushlab, uni muvozanatdan chiqarib, o‘ziga ishonch hosil qilib, yonbosh tarafidan kirib turib, raqibni oyog‘i bilan ko‘tarib yiqitadigan barcha usullar.

Yuk (yuklama) usullari – kurashchi o‘z qulayini olib, raqibni muvozanatdan chiqarib, o‘ziga ishonch xosil qilib, raqibini bel qismi bilan oshirib tashlaydigan barcha usullar.

Chala – baho kurashchilardan biri usul qo‘llab, usulni oxirigacha to‘liq bajara olmasa ishlatiladigan ibora, hakam qo‘lini kafti bilan oldinga qaratgan holda tirsagidan bukib ishora qiladi.

Chil usullari – kurashchi raqibining qulay joyini ushlab, muvozanatdan chiqarib, o‘ziga ishonch xosil qilib, chap yoki o‘ng oyog‘idan ildirib qilinadigan barcha usullar.

O‘zbek kurashi bo‘yicha kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan Jahon chempionatlarining

MUNDARIJASI

<u>Jahon chempionatlari</u>	<u>O‘tkazilgan joyi</u>	<u>Muddati</u>	<u>Ishtirok etgan davlatlar soni</u>	<u>Ishtirok etgan qit‘alar</u>	<u>Ishtirokchilar soni</u>
I Jahon chempionati	Toshkent, O‘zbekiston	01-02.05.1999 y	43	Afrika, Amerika, Evropa, Osiyo	136
II Jahon chempionati	Antaliya, Turkiya	13-17.07.2000 y	30	Afrika, Amerika, Evropa, Osiyo	150
III Jahon chempionati	Budapesht, Vengriya	23-26.08.2001 y	23	Afrika, Amerika, Evropa, Osiyo	120
IV Jahon chempionati	Erevan, Armaniston	27-31.08.2002 y	37	Afrika, Amerika, Evropa, Okeaniya, Osiyo	170
V Jahon chempionati	Toshkent O‘zbekiston	25-30.11.2005y	42	Afrika, Amerika, Evropa, Okeaniya, Osiyo	196
VI Jahon chempionati	Ulan-Bator, Mo‘g‘iliston	25-29.10.2007y	38	Afrika, Amerika, Evropa, Okeaniya, Osiyo	175

VII Jahon chempionati	Alushta, Ukraina	06-11.10.2009 y	43	Afrika, Amerika, Evropa, Okeaniya, Osiyo	230
VIII Jahon chempionati	Termiz, O'zbekiston	2011	60	Afrika, Amerika, Evropa, Okeaniya, Osiyo	400
IX Jahon chempionati	Istanbul, Turkiya	12-16.12.2013 y	46	Afrika, Amerika, Evropa, Okeaniya, Osiyo	295
X Jahon chempionati (Erkaklar)	Xurramobod, Eron	2-7.11.2015 y	32	Afrika, Amerika, Evropa, Osiyo	168
XI Jahon chempionati	Istanbul, Turkiya	30.11-03.12.2017 y	40	Afrika, Amerika, Evropa, Osiyo	260
XII Jahon chempionati	Chongju, Koreya Respublikasi	31.08-04.09.2019 y	42	Afrika, Amerika, Evropa, Osiyo	305

Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida Jahon chempionatlari g'olib va sovrindorlari

1999-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida Jahon chempionati

Musobaqa nomi: I jahon chempionati⁵

Vaqt: 1-2 may

Joyi va vaqti: Toshken, O'zbekiston 1999-yil
-73 kg

1-o'rin - Kurbanov Akobir (O'zbekiston)

2-o'rin - Mahmudov Maftun (O'zbekiston)

3-o'rin - Katsuragi Alexander (Brazil)

3-o'rin - Nasrullaev Hayrullo (O'zbekiston)
-90 kg

1-o'rin - Muradov Kamol (O'zbekiston)

2-o'rin - Bagdasarov Armen (O'zbekiston)

3-o'rin - Avezov Bahrom (O'zbekiston)

3-o'rin - Hodjaev Shuhrat (O'zbekiston)

Mutloq vazn toifasi

1-o'rin - Muhammadiev Toshtemir (O'zbekiston)

2-o'rin - Mahmarasulov Erali (O'zbekiston)

3-o'rin - Honorato Carlos (Brazil)

3-o'rin - Hodjaev Botir (O'zbekiston)

**2000-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati**

Musobaqa nomi: II-jahon chempionati

Vaqt: 13-17 iyul

**Joyi va vaqti: Antaliya, Turkiya 2000-yil
-73 kg**

1-o'rin – Mahmudov Mahtumkuli (O'zbekistan)

2-o'rin – Georgiev Angel (Bulgaria)

3-o'rin – Demirel Bektash (Turkey)

3-o'rin – Braun Ajos (Hungary)

-90 kg

1-o'rin – Avazov Bahram (O'zbekistan)

2-o'rin – Minarik Anton (Slovakia)

3-o'rin – Allakuliev Shohrat (Turkmenistan)

3-o'rin – Delahay Sam (Great Britain)

Mutloq vazn toifasi

1-o'rin – Tataroglu Selim (O'zbekistan)

2-o'rin – Malovaniac Pavel (O'zbekistan)

3-o'rin – Tankov Georgi (Bulgaria)

3-o'rin – Singh Kipral (India)

-63 kg – ayollar

1-o'rin – Kobash Ilknur (Turkey)

2-o'rin – Nazarenko Olesya (Turkmenistan)

3-o'rin – Yaron Einat (Israel)

3-o'rin – Mashiko Satomi (Japan)

**2001-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati**

Musobaqa nomi: III- jahon chempionati

Vaqt: 26 avgust

Joyi va vaqti: Budapesht, Vengriya 2001-yil

Mutloq vazn toifasi

1 -o'rin – Avazov Bahrom (O'zbekistan)

2-o'rin – Sabino Mario (Brazil)

3-o'rin – Hadbataar Munkbatar (Mongolia)

3-o'rin – Van Zyl C. (South African Republic)

-63 kg

1-o'rin – Sikora Dorota (Poland)

2-o'rin – Nazarenko Olesya (Turkmenistan)

3-o'rin – Shagibekova Yulia (O'zbekistan)

3-o'rin – Malley Joyce (Great Britain)

**2002-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati**

Musobqa nomi: IV- jahon chempionati
Vaqt: 30 avgust – 1 sentyabr
Joyi va vaqti: Erevan, Armaniston 2002-yil
-73 kg

1. Archill Chohelli Georgia
2. Ramziddin Saidov O'zbekistan
3. Adam Jaikowski Poland
3. Suldbayar Damdin Mongolia

-81 kg

1. Isoq Ahmedov O'zbekistan
2. Alexander Guedes Brazil
3. Nicolas Bibilashvili Georgia
3. Irakli O'znadze Turkey

-90 kg

1. Marcos Dauo Brazil
2. Davlat Choriev O'zbekistan
3. Harutsun Garibyan Armenia
3. Alireza S Iran

Mutloq vazn toifasi

1. Selim Tataroglu Turkey
2. Alexander Guedes Brazil
3. Ahmad Efati Arkan Iran
3. Khadbatar Munkbatar Mongolia

Ayollar -52 kg

1. Kristina Najaryan Armenia
2. Ergel Sehriban Turkey
3. Altin Muradova Turkmenistan
3. Galina Jdanova Russia

Ayollar -63 kg

1. Aktan Ebeu Turkey
2. Irina Yakovleva Russia
3. Fernanda Pires Brazil
3. Dorota Sikora Poland

Ayollar – Mutloq vazn toifasi

1. Belkis Kaya Turkey
2. Karine Gevonodyan Armenia
3. Shirley Morales Chile
3. Henriette Moller South Africa

2005-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati

Musobaqa nomi: V- jahon chempionati
Vaqti: 26-27 noyabr
Joyi va vaqti: Toshkent, O'zbekistan 2005-yil
Erkaklar

-60 kg

1. Mamatov Furkat (O'zb)
2. Boldbaatar Chimed (Mgl)
3. Kurbanov Ture (Tkm)
3. Wahedi Abdul Wahed (Afg)

-66 kg

1. Bokiev Rustam (Tjk)
2. Alexanidis Lavrentis (Gre)
3. Popov Anton (Mda)
3. Bakhshaei Mohsen (Iri)

-73 kg

1. Bokiev Rasul (Tjk)
2. Ryu Jeong Seok (Kor)
3. Turaev Sherali (O'zb)
3. Hidayberdiev Ferutdin (Tkm)

-81 kg

1. Saidov Ramziddin (O'zb)
2. Mohamadnia Ali (Iri)
3. Balasyan David (Rus)
3. Ganbold Ganzorig (Mgl)

- 90 kg

1. Choriev Davlat (O'zb)
2. Zolbayar Batjargal (Mgl)
3. Mesablihvili Nugzar (Ukr)
3. Ayyoub Hassani (Iri)

-100 kg

1. Fallah Abbas (Iri)
2. Elijah Chirwa (Zam)
3. Richardson Darrin (Gbr)
3. Nurullaev Ikrom (O'zb)

Q100 kg

1. Tangriev Abdulla (O'zb)
2. Khosravinejad Saeed (Iri)
3. Kim Beom Kim (Kor)
3. Snegovski Yuriy (Blr)

Mutloq vazn toifasi

1. Tangriev Abdulla (O'zb)
2. Iliadis Dionisios (Gre)
3. Iliadis Vasilios (Gre)
3. Zolbayar Batjargal (Mgl)

Ayollar

-48 kg

1. Sensoy Yildiz Nese (Tur)
2. Mavlyanova Shahnoza (O'zb)
3. Chow Wan (Hkg)
3. Martinova Maria (Arm)

-57 kg

1. Stavriou Pinelopi (Cyp)
2. Dennis Eleanor (Irl)
3. Yee Ling Ngo (Sin)
3. Shayhuddinova Rumiya (O'zb)

-63 kg

1. Martins Marcia (Bra)
2. Safarova Umeda (O'zb)
3. Malley Joyce (Gbr)
3. Devi B (Ind)

-87 kg

1. Kaya Belkis Zehra (Tur)
2. Kambarova Dilnoza (O'zb)
3. Cheprasova Galyna (Rus)
3. Koval Galyna (Ukr)

Mutloq vazn toifasi

1. Kaya Belkis Zehra (Tur)
2. Shekerova Mariya (O'zb)
3. Halikulova Sohibjamol (O'zb)
3. Koval Galyna (Ukr)

**2007-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati**

Musobaqa nomi: VI Jahon chempionati
Vaqt: 25-29 oktyabr
Joyi va vaqti: Ulanbator, Mo'g'iliston 2007-yil

Erkaklar:

- 60 kg

1. Mamatov Furkat (O'zbekistan)
2. Chinbat O. (Mongolia)
3. Waris Ali (Pakistan)
3. Bui Dihn Tien (Vietnam)

-66 kg

1. Ravshanov Olim (O'zbekistan)
2. Alberti Guillaume (France)
3. Esin B. (Kazakhstan)
3. Hishigbayar B. (Mongolia)

-73 kg

1. Munkhbayar H. (Mongolia)
2. Omoktyev Bayor (Russia)
3. Yalkapov Nurali (Turkmenistan)
3. Ogasawara Naoya (Japan)

- 81 kg

1. Mahmudov Ravshan (O'zbekistan)
2. Khudermunkh G. (Mongolia)
3. Jago Mathew (RSA)
3. Erdineev R. (Russia)

-90 kg

1. Juraev Sherali (O'zbekistan)
2. Zandeh Mohammad (Iran)
3. Remarenco Sergiu (Moldova)
3. Munkhbayar B. (Mongolia)

-100 kg

1. Nurullaev Ikrom (O'zbekistan)
2. Fallah Abbas (Iran)
3. Illiadis Moisei (Greece)
3. Till Leigh (Great Britain)

100 kg

1. Ganhuyag D. (Mongolia)
2. Rezaie Ali (Iran)
3. Malki El Mehdi (Marroco)
3. Temule K. (China)

Mutloq vazn toifasi

1. Choriev Davlat (O'zbekistan)
2. Juraev Sherali (O'zbekistan)
3. Aguiar Alex (Brazil)
3. Munkhbaatar (Mongolia)

Ayollar

-48 kg

1. Urantseg M. (Mongolia)
2. Kubieva Mukadas (O'zbekistan)
3. Bishop Justine (New Zealand)

63 kg

1. Tserenkhand D. (Mongolia)
2. Koval Galina (Ukraine)
3. Mavlanova Mashkhura (O'zbekistan)
3. O'zun Ebru (Turkey)

Mutloq vazn toifasi

1. Tserenkhand D. (Mongolia)
2. Ya Sagoo (Mongolia)
3. Koval Galina (Ukraine)
3. Dulmaa Y. (Mongolia)

**2009-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati**

Musobaqa nomi: VII-jahon chempionati

Vaqt: 9-10 oktyabr

Joy: Alushta, Ukraina

Erkaklar

-60 kg

1. Dalirian Mostafa (Iran)
2. Turebekov Bakhtyjan (Kazakhstan)
3. Gasparyan Gevorg (Russia)
3. Zeripov Gayratjan (Turkmenistan)

-66 kg

1. Ghaffar Mohsen (Iran)
2. Khudoyberdiev Sukhrob (O'zbekistan)
3. Mchedlistvili Djaba (Georgia)
3. Uspanov Marat (Kazakhstan)

-73 kg

1. Mihaylin Vladislav (Russia)
2. Imamov Yakhyo (O'zbekistan)
3. Mustafaev Ramazan (Kazakhstan)
3. Moradi Sorkhzou Zakaria (Iran)

-81 kg

1. Kholmamatov Sharof (O'zbekistan)
2. Jamali Mohamad (Iran)
3. Motorkin Andrey (Russia)
3. Iadze Giorgy (Georgia)

-90 kg

1. Juraev Sherali (O'zbekistan)
2. Abdrazzakov Ruslan (Kazakhstan)
3. Mereacre Danu (Moldova)
3. Gladkin Alexander (Russia)

-100 kg

1. Choriev Davlat (O'zbekistan)
2. Iliadis Dionysis (Greece)
3. Myagmarsuren Togtool (Mongolia)
3. AL Moneer Mohammad (Syria)

Mutloq vazn toifasi

1. Rodaki Mohammad Reza (Iran)
2. Pin Andrien (France)
3. Georg Urban (Hungary)
3. Muradov Shukhrat (O'zbekistan)

Ayollar

-48 kg

1. Kirienkova Liya (Russia)
2. Kubeeva Mukaddas (O'zbekistan)
3. Delpont Martinetter (South Africa)
3. Nguen Thi Hong (Vietnam)

-52 kg

1. Dosjanova Dinara (Kazakhstan)
2. Nazarova Shohida (O'zbekistan)
3. Tseng Yu-yu (Chinese Taipei)
3. Baydulina Maria (Ukraine)

-57 kg

1. Ochirpurev Lkhagvakhuu (Mongolia)
2. Sattorova Makhliyo (O'zbekistan)
3. Aldaas Sanda (Syria)
3. Dushka Tatyana (Ukraine)

-63 kg

1. Kotova Julia (Russia)
2. Nuralieva Ugiloy (O'zbekistan)

3. Ganbold Chimednorov (Mongolia)
3. Popa Lulia (Moldova)

-70 kg

1. Khorolsuren Mukhmagnai (Mongolia)
2. De Villiers Moira (New Zealand)
3. Doddemeade Chantelle (South Africa)
3. Ibragimova Darya (Ukraine)

-78 Kg

1. Khalikulova Sokhibjamol (O'zbekistan)
2. Sharma Latika (India)
3. Batkhishig Batchimeg (Mongolia)
3. Skora Maria (Ukraine)

-87 Kg

1. Koval Galyna (Ukraine)
2. Ismatova Gulmira (O'zbekistan)
3. Nyamkhoo Nyamtuya (Mongolia)

2011-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati

Musobaqa nomi: VIII –Jahon chempionati
Vaqti: 19 – 24 oktyabr
Joyi va vaqti: Termiz, O'zbekiston 2011-yil
Erkaklar

-60 kg

1. Chinbat Otgon (Mongolia)
2. Khudoyorov Abdurakhmon (O'zbekistan)
3. Zeripow Gayratjan (Turkmenistan)
3. Vahdani Behzad (Iran)

-66 kg

1. Kihara Keiichi (Japan)
2. Dalirian Mostafa (Iran)
3. Mallaev Zarifjon (O'zbekistan)
3. Makhmudov Arslonbek (O'zbekistan)

-73 kg

1. Turaev Serali (O'zbekistan)
2. Abraev Davlat (O'zbekistan)
3. Sobirov Farukhro'z (Tajikistan)
3. Dagvadorj Munkhbat (Mongolia)

-81 kg

1. Arslonov Shukhratjon (O'zbekistan)
2. Jamshedi Izatullo (Tajikistan)
3. Bichelashvilli Giorgi (Georgia)
3. Iadze Giorgi (Georgia)

-90 kg

1. Rahnamajozan Hojat (Iran)
2. Kholmamatov Sharof (O'zbekistan)
3. Sobirov Parviz (Tajikistan)
3. Azizpour Mohsen (Iran)

-100 kg

1. Abdurakhmonov Mukham (Tajikistan)
2. Abdulloev Rakhmatulli (Tajikistan)
3. Kuldashev Ulugbek (O'zbekistan)
3. Onishi Yuji (Japan)

+100 kg

1. Rudelson Gregory (Israel)
2. Khosrvinejad Saeed (Iran)
3. Kim Jongryul (Korea)
3. Iliadis Diionysios (Greece)

Ayollar

-48 kg

1. D'argent Tania (South Africa)
2. Kumlert Duangdar (Thailand)
3. Kubiyeva Mukaddas (O'zbekistan)
3. Tam Maho Ka Fei (Hong Kong)

-52 kg

1. Solongo Baatarsaikha (Mongolia)
2. Okbutaeva Shakhnoza (O'zbekistan)
3. Mukhamadiyeva Sayyora (O'zbekistan)
3. Sunaina (India)

-57 kg

1. Nishanbayeva Sevara (Kazakhstan)
2. Mustafaeva Juldiz (O'zbekistan)
3. Lkhagvaxuu Ochirpurev (Mongolia)
3. Aydogdyeva Madina (Turkmenistan)

-63 kg

1. Tserennadmid Tsend (Mongolia)
2. Chimednorov Ganbold (Mongolia)

3. Khrulenko Antonina (Ukraine)

3. Safarova Shohista (O'zbekistan)

-70 kg

1. Ismatova Gulmira (O'zbekistan)

2. Yavkochdieva Gulmira (O'zbekistan)

3. Khorolsuren Munkhmag (Mongolia)

3. Azzaya Enkhbat (Mongolia)

-78 kg

1. Munkhsetseg Otgon (Mongolia)

2. Nyamtuya Nyamki (Mongolia)

3. Khushbokova Kundo'z (O'zbekistan)

3. Swanepoel Andria (South Africa)

+78 kg

1. Tserenkhand Dorjgato (Mongolia)

2. Mavlonova Mashkhura (O'zbekistan)

3. Kubayeva Shirin (Turkmenistan)

3. Zholdassova Assiya (Kazakhstan)

**2013-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati**

Musobaqa nomi: IX –Jahon chempionati.

Vaqtı: 12 – 16 dekabr

**Joyi va vaqti: Istanbul, Turkiya 2013-yil
Erkaklar**

- 60 kg

1. Vahdani Behzad (Iran)

2. Domshchikov Igor (Ukraine)

3. Orazov Marat (Turkmenistan)

3. Phu Pham Minh (Vietnam)

- 66 Kg

1. Khudoyberdiyev Suhrob (O'zbekistan)

2. Boymurodov Ismoil (Tajikistan)

3. Rahmani Ali (Iran)

3. Chertyl Oleksiy (Ukraine)

- 73 Kg

1. Fayzulloev Fayoz (O'zbekistan)

2. Nanievi Alike (Georgia)

3. Ghadimi Hadi (Iran)

3. Nobeashi Takeru (Japan)

- 81 Kg

1. Saidov Saidjalol (Tajikistan)

2. Saparov Bektosh (O'zbekistan)

3. Aminyar Elyas (Afghanistan)

3. Ghaderi Mojtaba (Iran)

- 90 Kg

1. Ustopiriyon Komronshoh Usto (Tajikistan)

2. Mohammadniya Ali (Iran)

3. Buriev Zafar (O'zbekistan)

3. Iadze Giorgi (Georgia)

- 100 Kg

1. Mazmanidis Tedore (Georgia)
2. Rahnamajozan Hojat (Iran)
3. Ahmadi Ekramuddin (Afghanistan)
3. Angelidis Theofilaktos (Greece)

+ 100 Kg

1. Yezeci Feyyaz (Turkey)
2. Abdurakhmonov Mukhammurod (Tajikistan)
3. Hisomiddinov Muhsin (O'zbekistan)
3. Hajipour Masood (Iran)

Ayollar

-48 Kg

1. Trang Dao Le Thu (Vietnam)
2. Zaripova Ayna (Turkmenistan)
3. Gulova Nodira (O'zbekistan)
3. Vamattam Shesa Thomas (Usa)

- 52 Kg

1. Turk Merve (Turkey)
2. Chen Chin-Ying (Chinese Taipei)
3. Iliadou Parthena (Greece)
3. Karapetyan Yerjaniq (Armenia)

- 57 Kg

1. Jeong Eun-Bi (Korea Republic)
2. Nazarova Shokhida (O'zbekistan)
3. Heidari Soureshjani Somayeh (Iran)
3. SU Shih-Lin (Chinese Taipei)

-63 kg

1. Schlesinger Alice Hester Elizabeth (Israel)
2. Akarsu Ozge (Turkey)

3. Hoang Nguyen Thi (Vietnam)
3. Incedayi Dilara (Turkey)

- 70 kg

1. Oner Muhriban (Turkey)
2. Lohova Mariya (Turkmenistan)
3. Bidel Toktam (Iran)
3. Elzem Gorgula (Turkey)

- 78 kg

1. Munkhtsetseg Otgon (Mongolia)
2. Esonova Maftuna (O'zbekistan)
3. Kurtosmanova Zarema (Ukraine)
3. Ozer Tugba (Turkey)

- 87 Kg

1. Toprak Firdevs (Turkey)
2. Demir Bushra (Turkey)
3. Beniwal Pooja (India)
3. Bhullar Sudesh (India)

+ 87 Kg

1. Akbulut Sebile (Turkey)
2. Gashenko Kristina (Ukraine)
3. Temirova Dilfo'Za (O'zbekistan)
3. Sachdeva Deepvenus (India)

2015-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati

Musobaqa nomi: X-Jahon chempionati (erkaklar)
Vaqti: 02-06-noyabr
Joyi: Xurramobod, Eron 2015-yil
- 60 kg

1. Ghanbar Ali Ghanbari (Iran)
2. Rakhmon Jumaev (O'zbekistan)
3. Ehsan Bahramian Khayat (Iran)
3. Mirjon Tukhtaev (O'zbekistan)

-66 kg

1. Maruf Gaybulloev (O'zbekistan)
2. Abror Jabbarov (O'zbekistan)
3. Ghassem Nourizadeh (Iran)
3. Marat Orazov (Turkmenistan)

-73 kg

1. Davlat Abraev (O'zbekistan)
2. Hadi Ghadami (Iran)
3. Nuryagdy Jepbarov (Turkmenistan)
3. Veaceslav Plamadeala (Romania)

-81 kg

1. Temurkhon Turaev (O'zbekistan)
2. Ruslan Boltaev (O'zbekistan)
3. Elyas Aliakbari (Iran)
3. Serdar Jummyyev (Turkmenistan)

-90 kg

1. Seyedaliasghar Mousavi (Iran)
2. Younes Valizadeh (Iran)

3. Giorgi Iadze (Georgia)
3. Ihor Knysh (Ukraine)

- 100 kg

1. Erkin Doniyorov (O'zbekistan)
2. Moslem Nouri (Iran)
3. Vahid Nouri (Iran)
3. Vladyslav Zembytskyi (Ukraine)

+100 kg

1. Mukhsin Hisamiddinov (O'zbekistan)
2. Bekzod Karimov (O'zbekistan)
3. Hamid Gholi (Iran)
3. Jafar Pahlevani (Iran)

2017-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati

Musobaqa nomi: XI Jahon chempionati
Vaqti: 30 noyabr-03 dekabr
Joyi va vaqti: Istanbul, Turkiya 2017-yil
Erkaklar

- 60 kg

1. Jumanov Suindik (Kazakhstan)
2. Kurbanov Shamuhammet (Turkmenistan)
3. Vahdani Behzad (Iran)
3. Ozkaya Cihan (Turkey)

- 66 kg

1. Ahadov Shakhram (O'zbekistan)
2. Ghanbari Ghanbarali (Iran)
3. Orazov Marat (Turkmenistan)
3. Omurzakov Erkin (Turkmenistan)

- 73 kg

1. Abraev Davlat (O'zbekistan)
2. Kurbonov Mukhriddin (O'zbekistan)
3. Baltayev Begench (Turkmenistan)
3. Lozinskyi Taras (Ukraine)

- 81 kg

1. Rasulov Kamoliddin (O'zbekistan)
2. Omirov Dayanch (Turkmenistan)
3. Huang Chun-ta (Chinese Taipei)
3. Kankava Giorgi (Georgia)

- 90 kg

1. Arslanov Shukhratjon (O'zbekistan)
2. Rashidi Hamed (Iran)
3. Zanimoghaddam M. (Iran)
3. Lo Yu-hsuan (Chinese Taipei)

- 100 kg

1. Masmanidis Tentore (Greece)
2. Juraev Ilkhom (O'zbekistan)
3. Kim Jeong Woo (Korea)
3. Jumayev Hudayberdi (Turkmenistan)

+ 100 kg

1. Khisomiddinov Mukhsin (O'zbekistan)
2. Pahlevani Jaffar (Iran)
3. Safarov Razi (Azerbaijan)
3. Tsoumitas Dimitrios (Greece)

Ayollar:

- 48 kg

1. Muminova Mohinur (O'zbekistan)
2. Whitebool Michaela (South Africa)
3. Saparova Zarina (Turkmenistan)
3. Tsaturyan Shogik (Russia)

- 52 kg

1. Sulaymanova Gulnor (O'zbekistan)
2. Abdumajidova Oysuluv (O'zbekistan)
3. Chertyl Kateryna (Ukraine)
3. Hsiao Hui Shan (Chinese Taipei)

- 57 kg

1. Shermetova Dildor (O'zbekistan)
2. Allanazarova Amangul (O'zbekistan)
3. Cross Jenita (South Africa)
3. Kurbanova Mehriban (Turkmenistan)

- 63 kg

1. Lee Wan Ting (Chinese Taipei)
2. Pirmazarova Mohinur (O'zbekistan)

3. Nasyrova Gulshat (Turkmenistan)

3. Martin Jasmine (South Africa)

- 70 kg

1. Yilmaz Nurcan (Turkey)

2. Zakhartsova Olga (Russia)

3. Ismatova Gulmira (O'zbekistan)

3. Khudaykulova Gavhar (O'zbekistan)

- 78 kg

1. Yuldasheva Kumush (O'zbekistan)

2. Vlasova Aleksandra (Russia)

3. Yang Hsien-tzu (Chinese Taipei)

3. Esanova Maftuna (O'zbekistan)

- 87 kg

1. Yuldoshova Rakhima (O'zbekistan)

2. Ro'zieva Malokhat (O'zbekistan)

3. Vesser Chantele (South Africa)

- 87 kg

1. Eremeeva Nadezhda (Russia)

2. Kaya Belkis (Turkey)

3. Ilmatova Rinata (O'zbekistan)

3. Boyimova Begam (O'zbekistan)

2019-yil Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida
Jahon chempionati

Musobaqa nomi: XII Jahon chempionati

Vaqt: 30 avgust -06 sentyabr

Joy va vaqti: Chongju, Koreya Respublikasi 2019-yil

Erkaklar:

-60 kg

1. Abror Jabborov (O'zbekistan) — anti-doping qoidalarini bo'zgan
uchun diskvalifitsiya qilingan

2. Shamuhammet Kurbanov (Turkmenistan) — oltin medal sohibi

3. Merajuddin Chakmar (Afghanistan)

3. Chen Lo (Chinese Taipei)

-66 kg

1. Eiki Goya (Japan)

2. Kabuljon Akhmedov (O'zbekistan)

3. Shuaib Mohammad Yuosuf (Afghanistan)

3. Mohammad Mohammad (Kuwait)

-73 kg

1. Umid Esanov (O'zbekistan)

2. Muhammet Temirov (Turkmenistan)

3. Chia-Huang Lin (Chinese Taipei)

3. Hiroki Shinzato (Japan)

- 81 kg

1. Sarvar Shomurodov (O'zbekistan)

2. Elyas Ali Akbari (Iran)

3. Chun-Ta Huang (Chinese Taipei)

3. Khaknazar Nazarov (Tajikistan)

- 90 kg

1. Shermukhammad Jandriev (O'zbekistan)
2. Omid Taztak (Iran)
3. Ajmal Ishaq Zai (Afghanistan)
3. Alexis Plantard (France)

- 100 kg

- 1 Erkin Doniyorov (O'zbekistan)
- 2 Hamid Rashidi (Iran)
- 3 Jea Min Kim (Republic of Korea)
- 3 Hoang Duong Nguyen (Vietnam)

+100 kg

- 1 Mukhsin Khisomiddinov (O'zbekistan)
- 2 Jafar Pahlevanijaghargh (Iran)
- 3 Kunathip Yea-On (Thailand)
- 3 Mbepa Gaulou Antony Desire (Republic of Congo)

Ayollar

-48 kg

- 1 Mokhinur Muminova (O'zbekistan)
- 2 Nurzedmaa Erdenedalai (Mongolia)
- 3 Chia-Wen Tsou (Chinese Taipei)
- 3 Ayshirin Haydarova (Turkmenistan)

- 52 kg

- 1 Gulnor Sulaymanova (O'zbekistan) - anti-doping qoidalarini bo'zgani uchun diskvalifitsiya qilingan
- 2 Aynur Amanova (Turkmenistan) – oltin medal sohibi
- 3 Kyeong Ha Lee (Republic of Korea)
- 3 Tzu Yi Hung (Chinese Taipei)

-57 kg

1. Hyeon Jeong Lee (Rep. Korea)
2. Gulshat Nasyrova (Turkmenistan)
3. Saowalak Homklin (Thailand)
3. Makhliyokhon Yuldasheva (O'zbekistan)

- 63 kg

1. Yu-Ching Cheng (Chinese Taipei)
2. Dinara Hallyeva (Turkmenistan)
3. Khasani Najmu Shifa (Indonesia)
3. Ji Won Park (Rep. Korea)

- 70 kg

1. Nilufar Ergasheva (O'zbekistan)
2. Siti Latifah (Indonesia)
3. Chia-Ling Liu (Chinese Taipei)
3. Maria Lohova (Turkmenistan)

-78 kg

1. Wu Joo Lim (Rep. Korea)
2. Nurcan Yilmaz (Turkey)
3. Harpreet Kaur (India)
3. Chia-Jing Kao (Chinese Taipei)

-87 kg

1. Nyamtuya Nyamkhuu (Mongolia)
2. Jyoti (India)
3. Pu Reum Lee (Rep. Korea)
3. Rakhima Yuldasheva (O'zbekistan)

+87 kg

1. Pei Yu Sun (Chinese Taipei)
2. Rinata Ilmanova (O'zbekistan)
3. Tae Yeon Kim (Rep. Korea)
3. Pattamaporn Tubkit (Thailand)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 1992.-44 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2211-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 2-son, 49-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini to'zish to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi. -2002.-24-oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" qonuni. (yangi tahriri). Toshkent sh., 2015-yil 4-sentabr, O'RQ-394-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3306 sonli Qarori. Qonun hujjatlari milliy bazasi 03.10.2017
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufo'zini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-sonli Qarori QHMMB: 07/20/4881/1468
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi. Xalq so'zi. 2002-yil 31-oktabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №893-sonli Qarori G'G' QHMMB: 09/17/893
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi

to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 170-modda.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 212-modda.

13. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni. 406-O'RQ. 2016-yil 14-sentabr.

14. F.A.Kerimov – Sport kurashi nazariyasi va usuliyati, T., 2008-y.

15. K.T. Yusupov– Kurash musobaqalarrining umumiy qoidalari, T., 1998-y.

16. K.T.Yusupov. "Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi". Toshkent: G'ulom nashriyoti 2005 yil

17. N.T.Yusupov, F.A. Kerimov– Kurash uchun harakatli o'yinlar, T. 2005-y.

18. Sh.E.Keldiyorov "Kurash milliy sport turi harakatlarini dastlabki o'rgatish uslublarini takomillashtirish" Monografiya. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021-yil.

19. B.X.Xoliqov. – Kurash nazariyasi va uslubiyati. Toshkent: – 2020

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. KURASH TARIXIY TARAQQIYOT SARI	5
1.1. Kurashning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi.....	5
II BOB. KURASHCHILARNI JISMONAN TAYYORLASH ASOSLARI ...	20
2.1. Kurashchilarni jismoniy tayyorgarligi asoslari.....	20
2.2. Umumiy jismoniy tayyorgarlik	31
2.3. Maxsus jismoniy tayyorgarlik.....	33
III. TEXNIK USULLARNI O'RGATISH METODIKASI	36
3.1. Kurashdagi tashlash texnikasini o'rgatish ketma-ketligini tuzilishi	36
3.2. Harakatli o'yinlar orqali texnik usullarni o'rgatish metodikasi	45
IV BOB. TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIK ASOSLARI	48
4.1. Elementar texnik harakatlar	48
4.2. O'z- o'zini himoyalash	50
4.3. Oraliq masofalar	53
4.4. Kurash usullari va himoyasini o'rgatish.....	56
V BOB. KURASH USULLARI	65
5.1. Kurash usullari tavsifi.....	65
5.2. Supurma usullari	69
5.3. Chil usullari.....	74
5.5. Yuk (yuklama) usullari.....	84
5.6. Yelka usullari	87
5.7. Bardor usullari.....	92
5.8. Yonbosh usullari	95
VI BOB. KURASHDA MUSOBAQALARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH.....	99
6.1. Kurashda musobaqa turlari, hakamlar, qoidalar va ishtirokchilar.....	99
6.2. Kurash musobaqalarida qo'llaniladigan iboralar va ishoralar	102
XULOSA.....	111
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	147

CHORSHAMIYEV NURIDDIN ABDIALIMOVICH

**SPORT PEDOGOGIK MAHORATINI
OSHIRISH (KURASH)**

O'quv qo'llanma

Muharrir: S. Abdunabiyeva

Badiiy muharrir: K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi: A. Abdurashidov

Nashr. lits. AA № 0038.

Bosishga ruxsat etildi: 14.05.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.

“New Times Roman” garniturası.

Shartli b/t 30,4. Nashr hisob t 31,6.

Adadi 50 dona. 42-buyurtma.

“MAKON SAVDO PRINT” nashriyotida tayyorlandi.
100012, Toshkent sh. Yashnobod tum. Aviyasozlar-3, 2A, 29.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.

100198, Toshkent, Qo'yliq 4 mav

ISBN 978-9910-728-75-4



9 789910 728754